

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

RAXIMOV UMRBEK QO‘CHQOROVICH

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SOLIQ
SIYOSATINING TUTGAN O‘RNI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrası mudiri

i.f.d., professor Jo‘raev A.S. _____

“ _____ ” _____ 2014 y.

Bitiruvchi: 5340800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Raximov
Umrbek Qo‘chqorovich _____

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Amanov A. _____

TOSHKENT - 2014

KIRISH.....	3
1-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI.....	7
1.1. Soliq siyosatining mohiyati, xususiyatlari va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi vazifalari.....	7
1.2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining 2014 yilgi ustuvor yo'nalishlari.....	15
2-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH HOLATINING TAHLILI (Xiva tumani ma'lumotlari asosida).....	25
2.1. Byudjet daromadlari tarkibida soliqlarning tutgan o'rni va ularni muddatida undirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	25
2.2. Kichik korxonalarni soliqqa tortishda belgilangan soliq siyosatining yo'nalishlari.....	38
3-BOB. IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINI OQILONA YURITISH MASALALARI.....	46
3.1. Kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish yo'nalishlari.....	46
3.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	53
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	62

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizimini soddalashtirishning muhim masalalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozorida raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Iqtisodiyotimizning 2014-yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari avvalo bu sohaningyuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan.

Yalpi ichki mahsulot hajmini 8,1 foizga, sanoatni 8,3 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, chakana savdo aylanmasini 13,9 foizga ko'paytirish, bozor xizmatlarini 16,2 foizga oshirgan holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Soliq yukini yanada kamaytirish, jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday soliq yengilliklari 130 milliard so'mdan ortiq mablag'ni tejash va uni korxonalar ixtiyorida qoldirib, ularning o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, aholi

daromadlarini 90 milliard soʻmdan koʻproq oshirish imkonini beradi”¹ -deb taʼkidladilar.

Shulardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni ragʻbatlantirish yoʻnalishida quyidagilarni amalga oshirishga alohida eʼtibor qaratildi:

1. Soliq yukini engillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish boʻyicha xoʻjalik tuzilmalarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida tegishli choralar koʻrish.

2. Davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash maqsadida ayrim toifadagi korxonalarning soliq qarzdorliklarini toʻlov muddatlarini uzaytirish hamda restrukturizatsiya qilish.

3. Tadbirkorlik subʼektlari faoliyatini tashkil etish hamda faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq protseduralarni soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan davlat byudjeti loyihasini tayyorlash jarayonida soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish nazarda tutilmoqda. Bu esa byudjet-soliq siyosati sohasidagi qarorlarning samarali boʻlishini, daromadlar va xarajatlarni rejalashtirishda ilmiy asoslangan va tahlil etilgan iqtisodiyotning turli sohalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni aniq mezonlar asosida ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishni talab qiladi.

¹ Karimov I.A. “2014-yil yuqori oʻsish surʼatlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, oʻzini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili boʻladi” nomli Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasidan olindi.

Shuningdek, davlat moliyasini strategik taxminlashtirishda fiskal va iqtisodiy funktsiyalarning muvofiqligini ta'minlash borasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish barqaror soliq siyosatini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Ishning ob'ekti bo'lib soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hozirgi iqtisodiy sharoitda iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishda soliq siyosatining o'rnini oshirishning nazariy, uslubiy va amaliy muammolarini o'rganish hamda byudjet daromadlari va xarajatlarining barqarorligini ta'minlashda soliq siyosatining ustivor yo'nalishlarini yoritib berishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni oldiga qo'yadi:

- iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining mazmuni, mohiyati, funktsiyalari va asosiy hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni nazariy jihatdan o'rganib chiqish;

- soliq siyosatining mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishi jarayonida asosiy vazifalarini aniqlash;

- davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarib turishda fiskal siyosatdan foydalanishning mohiyati, uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini va ahamiyatini ochib berish;

- rivojlangan davlatlarning soliq siyosati borasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va respublikamiz amaliyotiga tadbqiq o'tishning xususiyatlarini ochib berish;

- davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy hamda strukturaviy o'zgarishida soliqlar va to'lovlarning dinamikasining o'zgarishiga baho berish;

- samarali soliq siyosati olib borishni ta'minlashning omillari va mezonlarini o'rganib chiqish;

-soliq siyosati islohotlarini amalga oshirishda moliyaviy qonunchilik barqarorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish;

-soliq yukini kamaytirish sharoitida soliq siyosatining mutanosibligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, ish natijalaridan soliq siyosatini samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy ishlarda foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishning xulosalari va amaliy takliflaridan soliq siyosatini ishlab chiqish va uni chuqur o'rganishda, o'quv uslubiy majmualarni yangilashda va akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari "Soliq tizimi", "Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari ma'lumotlar keltirib berilgan. Birinchi bobda soliq siyosatining mohiyati, vazifalari va iqtisodiyot erkinlashuvi sharoitidagi xususiyatlari, uning asosiy yo'nalishlari borasidagi fikr-mulohazalar o'rin olgan.

Ikkinchi bobda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq siyosatini izchil amalga oshirishni ta'minlash masalalari amaliy ma'lumotlar asosida o'rganib chiqilgan.

Uchinchi bobda hozirgi sharoitda soliq siyosatini takomillashtirish masalalari, soliq tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish masalalari o'rganib chiqilgan. Bitiruv malakaviy ishi xulosalar umumlashtirilgan va mavzu yuzasidan bir qator asosli takliflar ishlab chiqilgan.

1-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

1.1. Soliq siyosatining mohiyati, xususiyatlari va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi vazifalari

Soliq siyosati haqida so'z yuritish ekanmiz, biz uning nihoyatda ko'p qirrali va murakkab kategoriya ekanligini alohida ta'kidlashimiz kerak. Hozirgi kunga qadar soliq siyosati tushunchasi borasida yagona fikr mavjud emas. Masalan, g'arb iqtisodchilari Stenli Fisher, Rudiger Dornbush va Richard Shmalenzilarning fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi, - deb ta'kidlashadi.

Soliq siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, uni falsafiy kategoriyaga taqqoslaydigan bo'lsak, u ustqurmaga taalluqlidir. Ma'lumki, har qanday jamiyatda ham davlat biron-bir maqsadga erishish, oldiga qo'yilgan vazifa va majburiyatlarni bajarish uchun moliyadan keng foydalanadi. Soliq siyosati qo'yilgan maqsadlarni hayotga tadbiq etish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni tashkil etishda asosiy rol o'ynaydi. Uni ishlab chiqish jarayoni va hayotga tadbiq etishda, jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarish sharoitlarini ta'minlab, iqtisodiy manfaatlarga ta'sir ko'rsatadigan qurol sifatida namoyon bo'ladi.

Soliq siyosatining asosiy yo'nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o'rtasida qayta taqsimlash va bosh yo'nalishga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iboratdir.

Xorij iqtisodiy maktabining Kempbell R.Makkonell va Stenli L.Bryu kabi namoyondalari ham shunga o'xshash fikrlarni bildirib, moliyaviy-byudjet va fiskal siyosat tushunchalarini bir o'ringa qo'yishadi.²

Professor V.V.Lavrovning fikricha, soliq siyosati ishlab chiqarishni hisobga olish va nazorat qilish, mehnat sifati va mahsulotlarni taqsimlash bilan bevosita bog'liq.

Rus olimi I.V.Levchuk soliq siyosatining ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi katta rolini ko'rsatib, u birinchi navbatda, moliyaviy mablag'larni taqsimlash va foydalanishda markazlashtirish va demokratik boshqarishni tashkil etishda xizmat qiladi, deydi.

Shuningdek, rus iqtisodchi olimi M.K.Sheremetev o'zining «Finansi» asarida soliq siyosatiga quyidagicha tushuncha beradi: birinchidan, soliq siyosati – bu moliyadan foydalanish bo'yicha davlatning asosiy yo'nalishidir; ikkinchidan, mamlakat iqtisodining ichida ro'y beruvchi moliyaviy jarayonlarning natijasidir.

Yuqoridagilarga asoslanib, soliq siyosati – bu aholining hayot darajasini oshirish maqsadida moliyaviy mablag'larning davlat tomonidan tartibga solinishidir, - deb aytishimiz mumkin.

Soliq siyosati haqida fikr yuritganimizda, uning turlariga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim bo'ladi. Hozirgi kunda soliq siyosati turlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- iqtisodiy o'sish siyosati;
- muvozanatlashtirish siyosati;
- chegaralash siyosati.

Soliq siyosatining yuqorida keltirib o'tilgan turlari milliy daromad hajmini va aholi bandligi darajasini oshirishga, davlat xarajatlari tizimini nazorat qilish, soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solish, byudjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

² Belyaev Yu.A. Byudjetniy federalizm: zarubejniy opit. –M.: Finansi, 2007 g.

Moliya tizimida davlat byudjeti asosiy o'rinni egallaydi. Byudjet juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, u mamlakat iqtisodiy siyosatini boshqarishda asosiy moliyaviy reja sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosati davlatning byudjet daromadlarini optimal shakllantirish va davlat xarajatlarini oqilona sarflash uchun soliq olishni takomillashtirish sohasidagi siyosati tushuniladi. Ayni paytda, soliq siyosati ishlab chiqarishni o'stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Soliq siyosatining xususiyati shundan iboratki, u nafaqat davlatning daromadlar bazasini ta'minlash va kelib tushgan pul mablag'larini xarajat qilish, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda inflyatsiyaning past darajasini, aholining optimal bandligini ta'minlashi zarur.

Soliq siyosati tor ma'noda makroiqtisodiy barqarorlik va mustahkam iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va bosqichma-bosqich valyuta bozorini erkinlashtirish, aholining barqaror moddiy farovonligini ta'minlash va ijtimoiy himoyasini oshirish kabi umumdavlat makroiqtisodiy vazifalarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Soliq siyosatini amaliyotda amalga oshirish nuqtai nazaridan birlamchi vazifalar o'rtasida to'g'ri muvofiqlikni aniqlash muhim hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, soliq siyosati doirasida umumiy strategiyani ishlab chiqish bilan bir qatorda navbatdagi amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlarga faqat to'g'ri urg'u berish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tishning muayyan bosqichi vazifalariga mos ravishda byudjet-soliq siyosati instrumentlari ham o'zgarib boradi. Milliy iqtisodiyotimizni isloh qilishning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri davlat byudjeti daromad va xarajatlari muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan.

Davlat byudjet-soliq siyosatining strategik vazifasi davlat xarajatlarini tuzilmaviy qayta qurishni, daromadlarning yangi manbalarini izlab topishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini

ta'minlash uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga maqsadli ta'sir ko'rsatishni yo'naltirishdan iborat. Bunda byudjet-soliq siyosati davlatning byudjet daromadlarini byudjet xarajatlari tarkibiy tuzilishining o'zgarishiga qarab shakllantirish, daromadlarni oqilona sarflash mexanizmini ishlab chiqish sohasidagi siyosat tushuniladi.

Davlat byudjet siyosati davlat daromadlari va xarajatlarini ratsional shakllantirish, byudjet bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda mahalliy byudjetlar manfaatlarini muvofiqlashtirib turishni ta'minlashi lozim. Ayni paytda, byudjet-soliq siyosati ishlab chiqarishni o'stirishga hamda uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq siyosatining asosiy vazifasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'lib hisoblanadi. Buning uchun soliq siyosati sohasida soliq stavkalarini pasaytirish, yangi investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini berish, tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekistondagi soliq siyosatining xarakterli xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- hukumat ijtimoiy-iqtisodiy va byudjet-soliq siyosatining o'zaro bog'langanligi va bir-birini to'ldirishi;

- soliq siyosatining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalishini rag'batlantirishga erishish hamda uni mustahkamlashga yo'naltirilganligi;

- soliq yig'imini oqilona usulda tashkil etish va soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash;

- byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilganligi.

Bir butun olgan mamlakat hukumati tomonidan o'tkazilayotgan soliq siyosati davlat xazinasini bilan soliqlarning rag'batlantiruvchi roli va byudjet xarajatlarining eng maqbul tuzilmasi o'rtasidagi o'zaro nisbatning

samaradorligiga erishish imkonini yaratdi. O'z navbatida, daromadlar bo'yicha byudjetning barqaror va to'laqonli ijrosi byudjetda belgilangan barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'la moliyalashtirishni ta'minlaydi. Makroiqtisodiy jihatdan esa davlatning samarali byudjet-soliq siyosati investitsiya iqlimini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik, pul va moliya bozorlari rivoji, korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va aholining real daromadlari o'sishiga imkon beradi.

Soliq tadbirlari byudjet tadbirlarini to'ldirib turadi va ular birgalikda talab majmuasini rivojlantirishga, natijada esa ishlab chiqarishni ham rivojlantirishga olib keladi. Byudjet-soliq siyosati pul-kredit siyosati kabi izchil soliq siyosat yuritishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy holatni ko'tarish davrida davlat byudjet-soliq va pul-kredit siyosatida qarama-qarshi tadbirlarni mujassamlashtirgan tutib turish siyosatini o'tkazadi. Ushbu davrdagi byudjet-soliq siyosati soliqlar stavkasining ko'tarilishi, davlat xarajatlarining qisqarishi, amortizatsiya siyosatini o'tkazish doirasida chegaralanishlar bilan xarakterlanadi;

2. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. Buning uchun, eng avvalo, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosi sifatida pul muomalasini barqarorlashtirish bo'yicha zarur choralar ko'rish darkor. Faqat barqaror pul tizimi yaratilgan sharoitdagina xo'jalik mexanizmining barcha qatnashchilari va tashkiliy qismlari o'rtasida aloqalar o'rnatish mumkin;

3. Investitsion faollikni rivojlantirish va uning milliy daromaddagi ulushini ko'paytirish;

4. Byudjetning davlat dotatsiyalari bo'yicha alohida moddiy ishlab chiqarish sohalariga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish. Xarajatlar orqali byudjet, iqtisodiyotni boshqarish va rivojlantirishning muhim dastagi bo'lib xizmat qiladi;

5. Byudjetning daromad bazasini, soliqqa tortishni takomillashtirish va soliqlarni to'liq to'lanishi bo'yicha nazoratni kuchaytirish hisobiga barqarorlashtirish.

Soliqlar orqali korxonalar faoliyatini rag'batlantirish raqobatbardoshlikni oshiradi, kapital yig'ilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda turli soliqlardan imtiyozlar berilib, iqtisodiy rivojlanish uchun zamin yaratiladi;

6. Davlat xarajatlarini maqsadli va samarali tashkil qilinishi bo'yicha moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bu byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdan iborat. Bunda asosiy o'rinni byudjet-soliq siyosati yaxlitligiga erishish masalasi egallaydi.

Soliqlar yordamida tartibga solish har qanday mamlakatning xo'jalik hayotini, ya'ni ishlab chiqarish tarkibi, sarmoya jamg'arish hamda shaxsiy iste'molni qamrab oladi, chunki soliq siyosatining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotining ta'sirchan vositasidir. Bunday tartibga solishning asosiy maqsadi bo'lib, korxonalarning ichki va tashqi faoliyati uchun (ayniqsa, investitsiya mablag'larini joylashtirish uchun) qulay soliq iqlimini yaratish hamda sarmoya harakatini tarmoq va mintaqaviy yo'nalishlarda rivojlantirishni rag'batlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash hisoblanadi. Soliq siyosati yordamida tartibga solish har doim ham samarali natijalar beravermaydi, bunga mavjud iqtisodiy vaziyatni to'g'ri baholamaslik, uzoq muddatli strategik taxminlashtirishni noto'g'ri belgilash, soliq yukining taqsimlanishdagi nomutanosiblik sabab bo'lishi mumkin.

Soliq siyosati asosiga byudjetga soliq tushumlari hajmlarini soliq stavkalarini oshirish hisobiga emas, balki ishlab chiqarishni tegishli tarmoqlarini va mahsulotning ustuvor turlarini rag'batlantirish vositasida soliq solish bazasini ko'paytirishga imkon yaratadigan choralar hisobiga oshirish zarurligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Soliq siyosati soliqlarning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Soliqlarning ustqurma tartibining sub'ektiv hodisasi sifatidagi ahamiyati davlat faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ushbu ahamiyat doimiy harakatda bo'lib, butun xalq xo'jaligining manfaatlari va maqsadlarini jamlama ko'rinishda aks ettirilgan holda davlat siyosatini o'zgarishiga bog'liqdir.

Davlatning soliq siyosati vaqt davrlari muammosi bilan to'qnash kelishi mumkin.

Odatda, iqtisodchilar makroiqtisodiy vaziyatni batafsil ta'riflaydigan statistik ma'lumotlarni ba'zan 3-6 oy kechikib oladilar. Tabiiyki, bunday vaziyatda har qanday qarorlar kechikadi.

Soliq siyosati uzoq davom etadigan ichki davr bilan ta'riflanadi: soliq qonunlaridagi yoki davlat xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar, odatda, hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bu esa ko'p vaqtni talab qiladigan turli xil ma'muriy rusum-qoidalar: qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama qilish va kelishib olish, parlament tomonidan qabul qilinishi, Prezident tomonidan tasdiqlanishi va boshqalar bilan bog'langan.

Ko'pincha soliq siyosatini amalga oshirishda funktsional kechikish yuz beradi: qaror qabul qilinishi bilan uning ijrosi ko'p vaqt o'tishiga to'qnash keladi.

Shunday qilib, vaqt davrlari mavjudligi soliq siyosatining samaradorligini pasaytiradi.

Soliq siyosatini amalga oshirish turli xil siyosiy muammolar bilan to'qnash kelishi mumkin. Hukumat faoliyati, makroiqtisodiy barqarorlashtirishdan tashqari, barqarorlashtirish vazifasiga zid kelishi mumkin bo'lgan boshqa maqsadlarni ham ko'zlaydi. Soliq siyosatidan juda tez sof siyosiy natijalarga erishish (hokimiyat tepasiga kelish, hokimiyatni qo'ldan boy bermaslik) uchun foydalaniladi. Soliq yukining kamayishi davlat xarajatlarining ko'payishi, odatda, turli xil saylovoldi tadbirlari boshlanishi bilan muvofiq kelishi avvaldan ko'zga tashlanib keladi. Bundan tashqari, soliq siyosati doimo hammaning ko'z o'ngida, saylovchilar madadiga tayanmoqchi bo'lgan siyosatchilar (hatto buni iqtisodiy zarurat talab qilgan taqdirda ham) soliqlarni ko'paytirishga yoki ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni kamaytirishga jur'at eta olmaydilar.

Faol makroiqtisodiy siyosatning hozirgi ba'zi muxoliflari o'z dalil-isbotlarida «Lukas tanqidi» (ratsional kuzatishlar nazariy maktabining asoschisi R.Lukas nomi bilan atalgan) degan kontseptsiyadan foydalanadilar.

Lukas tanqidi shundan iboratki, iqtisodiy siyosat natijalarini baholash usullarini uning iqtisodiyot sub'ektlari umidlarini shakllantirishga ta'sirini hisobga olmaydi. Vaholanki, ushbu umidlar ulkan o'rin egallab, makroiqtisodiy siyosatni ko'pincha ma'nosiz qilib qo'yadi. Chunonchi, hukumat tomonidan rag'batlantiruvchi siyosat o'tkazilganda iqtisodiyot sub'ektlari muayyan vaqt o'tgandan so'ng inflyatsiya sakrashi yuz berishini tushunadilar. Shuning uchun ular o'z rejalarini yangi vaziyatni hisobga olib tuzadilar. Soliqlar kamaytirilishi yoki davlat rejalarini o'stirish to'g'risida axborot olinishi bilanoq resurslarni sotuvchilar inflyatsiyani kutib, ishlab chiqarish omillari narxini oldindan oshiradilar. Tovar va resurslar narxining ortishi iste'molni kamaytirib, iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Soliq siyosati samarasini pasaytiradigan omillardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- narxlarning o'sishi (haqiqatda iqtisodiyotni rag'batlantirishga doir chora-tadbirlar nafaqat real YaMM ko'payishiga, balki inflyatsiyaga ham olib kelishi mumkin);

- siqib chiqarish effekti: soliq stavkalarini kamaytirish milliy jamg'armalarni qisqartiradi va investitsiyalar hajmini kamaytiradi;

- sof eksport effekti: soliqlarni qisqartirish milliy jamg'armalar miqdorini kamaytiradi, ichki foiz stavkasini oshiradi, xorijiy sarmoyalarning qo'shimcha oqib kelishiga olib keladi: natijada mamlakat valyutasining kursi oshadi va sof eksport miqdori qisqaradi.

Bozor islohotlari umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish uchun respublika miqyosidagi barcha daromadlarni birlashtirish va markazlashtirish, shuningdek, ularga mos keluvchi soliq tizimini tadrijiy isloh qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan kekkib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, byudjet daromadlarini ko'paytirishdagi soliq siyosatining echimi soliq tizimi va soliq siyosati bilan bog'liqdir. O'zbekistonning soliq siyosatini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalish bu davlat uchun ham, bozor qatnashchilari uchun ham qulay sharoitlarni yaratishdir. Bunda soliq islohotining asosiy maqsadi faqat byudjet daromadlarini ko'paytirish bo'lib qolmasdan, balki ishlab chiqarishni rivojlantirishni, tadbirkorlikni rag'batlantirish va faoliyat samaradorligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratimog'i lozim. Bunda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- soliqlarni qisqartirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini pasaytirish yo'nalishlarida soliq qonunchiligini takomillashtirish;
- soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish;
- bir xil soliq bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish;
- soliq qonunchiligiga rioya etish ustidan qat'iy operativ nazoratni joriy etish.

Aytib o'tilgan choralarni amalga kiritish amalga oshirilayotgan soliq siyosati samaradorligini oshiradi hamda soliq tizimini iqtisodiy o'sishga erishish vazifalari bilan muvofiqlashtirishga yordam beradi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining 2014 yilgi ustuvor yo'nalishlari

Prezidentimiz I.A.Karimov "Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi"² deb ta'kidladilar. Shuningdek, mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga

² Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. -T.: 2011.

asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratildi.

Shulardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish yo'nalishida quyidagilarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi:

4. Soliq yukini engillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tegishli choralar ko'rish.

5. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida ayrim toifadagi korxonalarning soliq qarzdorliklarini to'lov muddatlarini uzaytirish hamda restrukturizatsiya qilish.

6. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tashkil etish hamda faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq protseduralarni soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Respublikamizda ayniqsa kichik biznes sub'ektlari faoliyatiga yanada keng imkoniyatlar berish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda soliq yukini engillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik yurituvchi korxonalarni, jumladan, eksportyor-korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator qo'shimcha choralar, xo'jalik sub'ektlariga keng ko'lamli qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi.

Mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlashda, eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida Prezidentimiz I.A.Karimov: "...eksport qilinadigan mahsulotlarimiz tarkibini va umuman, tashqi savdo aylanmasini yanada diversifikatsiya qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda"³-deb alohida ta'kidlaydi.

Bugunda ichki talabni kengaytirish bilan birgalikda eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, eksport qiluvchi korxonalarga qaytarib berilgan qo'shilgan qiymat solig'i hajmi 21 milliard so'mni tashkil etdi, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha, jarima va penyalardan kechgan holda, elektr energiyasi, tabiiy gaz etkazib berish va ko'rsatilgan kommunal xizmatlar uchun qariyb 56 milliard so'mlik qarzдорlik restrukturizatsiya qilindi. Eksport mahsulotlarini tannarxiga teng bo'lgan, ayrim hollarda tannarxidan past bo'lgan narxlarda sotish bo'yicha mexanizm qo'llanilmogda. Qayd etilgan chora-tadbirlar, shuningdek, eksportni yanada diversifikatsiya qilish va yangi tashqi bozorlarga chiqish eksport dasturi bo'yicha 13,4 foizga o'sishini va savdo balansining qariyb 1,6 milliard dollarlik ijobiy saldosi ta'minladi.

Respublikamiz soliq tizimida eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qator imtiyozlarning mavjudligi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 8 apreldagi "2009 yilda mahsulot eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1092-sonli qaroriga ko'ra iqtisodiy nochor korxonalarni 2009 yilda respublika korxonalariga o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni eksport qilinadigan tovarlarga jahon narxlarining amalda yuzaga kelgan kon'yunkturasini hisobga olgan holda, tannarxiga teng yoki undan pastroq narxlarda erkin ayirboshlanadigan valyutaga eksport qilish uchun ruxsatnomalar berish huquqi berildi.

³ Karimov I. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: 2010. 64-bet.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarni mustaqil ravishda yoki vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining tashqi savdo kompaniyalari, shuningdek, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining tashqi savdo firmalari orqali tannarxidan pastroq narxda erkin ayirboshlanadigan valyutaga eksport qiladigan korxonalar uchun soliqqa tortish maqsadlarida sotishdan olinadigan tushum eksport qilinadigan tovarlarni sotishning amaldagi narxidan kelib chiqqan holda belgilanishi qayd etilgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlangani buning tasdig'idir.

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan. Buning misoli sifatida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmini keltirishimiz mumkin. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siriga qaramasdan yurtimiz sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqoror sur'atlarini ta'minlab, iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmini 2013 yilda 8,2 milliard dollarga etkazdi. Bu o'z navbatida 2012 yilning ko'rsatkichlariga nisbatan 24,8 foizga oshganidan dalolat beradi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning hajmi esa 68 foizga oshgan bo'lib, eng muhimi, ularning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalarni tashkil etdi.

Mamlaktda olib borilayotgan faol investitsiya faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan biri bu "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasiga jalb qilinayotgan xorjiy investitsiyalar hajmini yanada oshirishdir. Bu borada har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan iqtisodiyotning muhim

tarmoqlari va ijtimoiy sohadagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga to'xtalib o'tsak o'rinli bo'ladi.

Investitsiya dasturiga asosan joriy yilda 18 220 293 mln.so'm miqdorida kapital qo'yilmalarini rejalashtirgan bo'lsa, shundan 3 819 784 mln. so'm markazlashgan investitsiyalarga, qolgan 14 400 509 mln.so'm qo'yilmalar markazlashmagan investitsiyalarga to'g'ri keladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, markazlashmagan investitsiyalarning 27,0 foizi yoki 3 876 809 mln.so'mi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarni tashkil etadi⁴. Yuqorida aytib o'tilgan Investitsiya dasturiga asosan 2013 yilda "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb etish orqali 37,38 mln. dollarga investitsiya loyihalari amalga orilishi ko'zda tutilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasi bugungi kunda potentsial strategik investorlarni jalb eta turib, nafaqat O'zbekiston Respublikasi, balki butun O'rta-Osiyo iqtisodiyotining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, etarli tabiiy boyliklarga, nisbatan arzon ishchi kuchiga, rivojlangan ijtimoiy infratuzilmaga ega hududdir. Shunday ekan, ham ichki bozorni ya'ni aholi ehtiyojini qondirishga ham eksportga mo'ljallangan maxsulot ishlab chiqarish uchun yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda moliyaviy mablag'larni jalb etuvchi "Navoiy" EIIZni yanada rivojlantirishda qulay investitsion muhitni tashkil etish iqtisodni modernizatsiyalashtirishning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozidan keyingi davrda aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Ushbu o'ta dolzarb bo'lgan bu masalani echishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish lozimdir.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 oktyabrdagi PQ-1312-sonli Qarori

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1112-sonli qaroriga ko'ra, 2009 yil 1 iyundan boshlab:

- kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatish tariflarini;
- tadbirkorlik ob'ektlarining arxitektura - rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish va ularning loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish qiymatini;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun boj haqini – eng kam ish haqi miqdorining 5 barobaridan 2 barobari miqdorigacha;
- tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan banklarda hisob-raqamlarini ochish uchun to'lovlarni – eng kam ish haqi miqdorining 1 barobaridan 0,5 barobari miqdorigacha, qishloq joylarda esa – eng kam ish haqining 0,1 barobari miqdorigacha pasaytirish takliflari ma'qullandi.

Kichik korxona o'z uylarida ishlayotgan (kasanachilik bilan shug'ullanayotgan) fuqarolar bilan, qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan normatividan ko'pi bilan 30 foiz oshgan miqdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferentsiyalar mazkur korxona uchun saqlanib qolinishi belgilandi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida "Barkamol avlod yili" Davlat dasturiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2010 yilning 28 iyulidagi PF-4232-sonli Farmoni, eng avvalo, ta'lim muassasalari, ya'ni kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini bevosita o'z tanlagan kasblari bo'yicha ish o'rinlari bilan ta'minlashga va aholini, ayniqsa, yoshlarni bandlik darajasini oshirishga qaratilganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalari tomonidan kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimi takomillashadi, ularni tadbirkorlik sub'ektlari bilan shartnomaviy munosabatlari mustahkamlanib, amaliy tajribaga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash salohiyati kengayadi.

Uchinchidan, mikrofirmalar va kichik korxonalar bilim va malakaga ega bo'lgan yosh kadrlar bilan ta'minlanib, qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etiladi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmlari oshadi, kichik biznesni mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmidagi ulushi ko'payadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoni ta'lim muassasalari uchun ham muayyan imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, Ta'lim muassasalarining, ayniqsa kasb-hunar kollejlarning yuqori malakaga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga bo'lgan manfaatdorligi oshib, etarli darajadagi professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va ta'lim muassasasi moddiy-texnika bazasini kengaytirishga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytiradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini bevosita amaliyot bilan bog'langan holda amalga oshirish imkoniyatlari yaratilib, tayyorlanayotgan kadrlarni etarli darajada bilim va ko'nikmaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Natijada, ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhiti shakllanib, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga bo'lgan intilish va manfaatdorlik kengayadi.

Eng asosiysi, mikrofirmalar va kichik korxonalar, ya'ni kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun Farmonning ahamiyati juda kattadir. Jumladan, ushbu toifadagi tadbirkorlik sub'ektlari kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan imtiyoz va engilliklarni saqlab qolgan holda, o'z xodimlari sonini belgilangan chegaraviy miqdordan 20 foizga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bunda imtiyoz va engilliklardan soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lgan eng asosiylari – bu soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini qo'llash,

tekshirishlar davriyligini to'rt yildan ko'p bo'lmagan muddatda bir marta amalga oshirishi va moliyaviy hisobotlarni bir yilda bir marta taqdim etishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli Qaroriga muvofiq, 2014 yil 1 yanvardan qo'yidagi soliq turlari bo'yicha soliq stavkalari pasaytirildi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining birinchi shkalasi (5 ta minimal ish haqi miqdorigacha daromad) bo'yicha quyi stavkasi 8 foizdan 7,5 foizga pasaytirilishi aholi daromadiga soliq yukini yanada kamaytirishni ta'minlaydi.

- mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi tushirilishi yagona soliq to'lovini to'lovchilar ko'payishi, bunda davlat byudjetiga ham qo'shimcha mablag' tushishidan dalolatdir. Yalpi ichki mahsulotdagi hajmi ham oshib boradi, mahsulotlarning turi ko'payadi va mahsulotlarning tannarxi kamayib aholining iste'mol darajasi oshadi.

- yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun 2011 yilning 1 iyulidan yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalar bo'yicha, biroq eng oz miqdordan – soliq to'lovchi egallab turgan er maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan er solig'ining 3 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lash tartibi belgilandi.

- Moliya vazirligiga va Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda, tadbirkorlik sub'ektlarining qaerda joylashganiga va bajarayotgan faoliyat turiga qarab yagona soliq to'lovining eng oz miqdoriga nisbatan pasaytiruvchi koeffitsientlarini belgilash xuquqi berildi.

- bojxona xujjatlarini rasmiylashtirish bilan shug'ullanuvchi (bojxona brokerlari) yuridik shaxslarga yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foiz qilib belgilandi.

2011 yilning 1 yanvar holatiga davlat ro'yxatidan o'tgan ta'minot-sotish faoliyati 2011 yilning 1 yanvaridan boshlab ulgurji savdo sifatida qaralishi

hamda ularga ulgurji savdo korxonalari uchun nazarda tutilgan faoliyatini amalga oshirish va soliq solish xuquqiy normalari joriy etilishi belgilandi.

- ta'minot sotish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olish muddati 2011 yil 1 aprelgacha belgilandi. Shuningdek, 2011 yil 1 yanvargacha ro'yxatdan o'tkazilgan ta'minot-sotish tashkilotlari tovarlar oldi va sotdisi bo'yicha faoliyatni 2011 yil 1 aprelgacha ulgurji savdo xuquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi.

- chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun 2011 yilning 1 yanvardan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam normativlari joriy etilishi belgilandi.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishda soliq siyosatini tutgan o'rnini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- daromadlarning yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqich o'tish masalasida xo'jalik sub'ektlari tomonidan to'lanayotgan soliqlar va majburiy to'lovlarning to'lash muddatlarini avans to'lovlarini amalga oshirish muddatlari sifatida saqlab qolgan holda, ular bo'yicha hisob-kitob va hisobotlarini moliya yili yakuni bilan bir marotaba taqdim etilishini joriy qilish;

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliqqa tortish amaliyotida qo'llaniladigan "ko'k deklaratsiya" tizimidan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan moliyaviy va soliq hisobotlarini, jismoniy shaxslarning soliq deklaratsiyalarini DSIlarga elektron ko'rinishda taqdim etganda, to'lanadigan soliq summasini 5 foiz miqdorida kamaytirish huquqi berilishi maqsadga muvofiqdir;

- kichik korxonalarni soliqqa tortishning jahon tajribasidan kelib chiqib, mikrofirma va kichik korxonalarni aniqlash mezonlariga, ishlovchilar soni bilan birga, realizatsiya hajmi (tovar aylanmasini) ham kiritish zurur.

Bizning keyingi yillarda tadbirkorlik sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, iqtisodiyot tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasi deb hisoblaymiz.

2-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH HOLATINING TAHLILI

(Xiva tumani ma'lumotlari asosida)

2.1. Byudjet daromadlari tarkibida soliqlarning tutgan o'rne va ularni muddatida undirishning o'ziga xos xususiyatlari

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa boshqa tomondan esa boshqaruvning harakteriga, ijtimoiy – iqtisodiy holatiga va muvozanatiga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda biz moliyaviy siyosatning ajralmas bo'lagi bo'lgan soliq siyosati to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, soliq siyosati bu mamlakat iqtisodiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga ajratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgan ilk kunidanoq o'zining mustaqil soliq siyosatini yuritishga intila boshladi. Shunday qilib mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mustaqil soliq siyosatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston o'z davlatchilik shaklidan kelib chiqib Respublika budjetini shakllantirish uchun umumdavlat soliqlari va mahalliy budjetlarni shakllantirish uchun mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi. Shuningdek bir qator umumdavlat soliqlari Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra butunlay mahalliy budjetlarga o'tkazilishi yoki respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga erishish, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllantirish mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh asosiy tamoyilga asosan amalga oshirildi. Mazkur tamoyillardan biri davlatning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida bosh islohotchilik rolini bajarish hisoblanadi. Bu esa, iqtisodiyotga davlat aralashuvining faolligini belgilab beradi. Shubhasiz, bu jarayonda asosiy o'rinni birinchi boshqaruv vositasi sifatida soliqlar egallaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov soliqlarning iqtisodiyotni boshqarishdagi ahamiyatiga to'xtalib, jumladan shunday dedilar: «Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi».⁵

Soliq tushumlari hisobidan davlat qurilish va jamiyatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari jalb qilinadi. O'zining mohiyatiga ko'ra soliqlar davlat byudjetining yuqori daromadli manbalaridan biri hisoblanadi. Buning boisi shundaki, birinchidan, soliqlar davlat byudjeti tomonidan qaytarib bermaslik sharti bilan undiriladi; ikkinchidan, ular byudjetning davlat xarajat qilmaydigan qismi hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan holatlarning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari tarkibida soliqlarning yuqori salmoqni egallashi yuzaga keladi (1-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar yuqori salmoqni egallaydi. Agar soliqlar va bojxona boji bilan birgalikda hisoblaydigan bo'lsak, ular davlat byudjeti daromadlarining 85-90 foizini tashkil etmoqda, bu ko'rsatkich 2011 yil 85,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yil davlat byudjetini asosiy daromadlarida soliqlarni hissasi 87,5 foizni tashkil etgan, 2013 yilda 87,8 foizni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Soliq turlari bo'yicha esa eng ko'p ulush qo'shilgan qiymat solig'i (29-32 foiz) va aktsiz solig'i (14-15 foiz) hisobiga to'g'ri kelmoqda. Aktsiz solig'ini hissasi esa yil sayin kamayib borishi kuzatiladi.

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998. –358 b.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari⁶

Ko'rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da
I. Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	13116396,9	100	16178563,5	100	13116396,9	100	16178563,5	100
1.To'g'ri soliqlar	3420602,8	26,1	4238732,8	26,2	3420602,8	26,1	4238732,8	26,2
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	645476,1	4,9	825011,7	5,1	645476,1	4,9	825011,7	5,1
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	297034,7	2,2	527481,4	3,3	297034,7	2,2	527481,4	3,3
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	346321,2	2,6	378360,0	2,3	346321,2	2,6	378360,0	2,3
1.4. Jismoniy shaxslar-dan olinadigan daromad solig'i	1535033,4	11,7	1789700,0	11,1	1535033,4	11,7	1789700,0	11,1
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	139145,7	1,1	187547,1	1,1	139145,7	1,1	187547,1	1,1
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil-mani rivojlantirish solig'i	457591,7	3,5	530632,6	3,3	457591,7	3,5	530632,6	3,3
2. Egri soliqlar	6973809,5	53,1	8656853,1	53,5	6973809,5	53,1	8656853,1	53,5
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	3987982,3	30,4	5228773,9	32,3	3987982,3	30,4	5228773,9	32,3
2.2. Aktsiz solig'i	2191092,1	16,7	2481794,0	15,3	2191092,1	16,7	2481794,0	15,3
2.3. Bojxona boji	479267,2	3,8	515980,5	3,2	479267,2	3,8	515980,5	3,2
2.4. Jismoniy shaxslar-dan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlat-ganlik uchun olinadigan soliq	315467,9	2,4	430304,7	2,6	315467,9	2,4	430304,7	2,6
3. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	1974143,8	15,1	2308908,7	14,3	1974143,8	15,1	2308908,7	14,3
3.1. Mol-mulk solig'i	354128,5	2,7	490536,2	3,0	354128,5	2,7	490536,2	3,0
3.2. Er solig'i	303850,1	2,3	346862,9	2,1	303850,1	2,3	346862,9	2,1
3.3. Er qat'ridan foyd. uchun soliq	1265000,0	9,6	1409715,0	8,7	1265000,0	9,6	1409715,0	8,7
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	51165,2	0,4	61794,6	0,4	51165,2	0,4	61794,6	0,4
4. Ustama foyda solig'i	25695,7	0,2	142314,4	0,8	25695,7	0,2	142314,4	0,8
5. Boshqa daromadlar	722145,1	5,5	831754,5	5,1	722145,1	5,5	831754,5	5,1

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining byudjet parametrlari to'g'risidagi qarorlaridan olindi.

Masalan, 2011 yil bu soliqni jami byudjet daromadlaridagi hissa 15,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yil rejasida 14,9 foizni tashkil qilishi belgilangan. Keyingi yillarda soliq tizimini rag'batlantiruvchilik rolini oshib borishi ayni soliq tushumlari dinamikasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz buni yuridik shaxslardan olinadigan foyda misolida ko'rishimiz mumkin. Agar 2008-2010 yillarda bu soliq hisobiga jami davlat byudjetining 8-10 foizi shakllangan bo'lsa, 2011 yil bu ko'rsatkich 5,1 foiz, 2012 yilda esa 4,4 foiz salmoqqa ega bo'lgan. Bundan tashqari er solig'i, er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlarni byudjetdagi salmog'ini hissasi ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida resurslardan samarali foydalanish maqsadida soliq stavkalarining oshirilishi bilan izohlanadi.

Natijada qisqa muddatli davriy oraliqlarda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq tushumining davlat byudjeti daromadlari hajmidagi salmog'i pasayadi, lekin o'rta va uzoq muddatli davriy oraliqlarda korxonalarining daromadlari sezilarli darajada oshib, ularning foydasidan olinadigan soliq tushumlari ko'payadi. Shu jihatdan olganda, hukumatimiz tomonidan ho'jalik sub'ektlarining soliq yukini engillashtirish siyosatini olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonning milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun juda katta ahamiyatga ega ekanligi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarida o'zining yaqqol ifodasini topgan: «Korxonalar zimmasidagi soliq yukini engillashtirish, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining kamaytirilishi oqibat natijada ishlab chiqarishni jonlashtirishga olib kelishi lozimki, bu narsa iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etishda g'oyat katta ahamiyatga ega».⁷

Davlat byudjeti daromadlari tarkibida solikli daromadlar darajasining yuqori yoki past bo'lishi hukumatning soliq siyosatiga ko'p jihatdan bog'lik bo'lib, uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri soliq tushumlarining YaIMdagi salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi.

⁷ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998. 360-bet.

**O'zbekiston Respublikasida soliq tushumlarining YaIMdagi
salmog'ining o'zgarishi, foizda⁸**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2009 y	2010 y	2011 y	2012 y	2013 y
Ya I M	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Soliq tushumlarining YaIMdagi salmog'i	24,1	23,9	22,7	21,9	20,4

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2009-2013 yillar mobaynida mamlakatimizda soliq tushumlarining YaIMdagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Buning sababi, soliq tushumlarining o'sish sur'atidan YaIMning o'sish sur'atini yuqori bo'lganligi hisoblanadi. Soliqlarning fiskallik funktsiyasi nuqtai-nazaridan bu salbiy holat hisoblanadi. Chunki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatini pasayib borayotganligidan dalolat beradi. Lekin, soliqlarning iqtisodiy funktsiyasi nuqtai nazaridan bu ijobiy holat hisoblanadi. Buning boisi shundaki, soliq tushumlarining YaIMdagi salmog'ining kamayishi davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqarayotganligi, yuridik va jismoniy shaxslarning soliq yukining engillashayotganligining natijasi bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan mazkur holatni ijobiy tarzda baholash lozim, chunki milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi bosqichida hukumat tomonidan xo'jalik sub'ektlari va aholining soliq yukini engillashtirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasini tobora qisqartirib borish siyosati amalga oshirilmoqda.

Soliqlar mohiyati va shakliga qarab egri soliqlar va to'g'ri soliqlarga bo'linadilar. Egri soliqlar tovarlar (xizmat ko'rsatishlar) narxini oshiradilar,

⁸ Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida hisoblandi. –Toshkent, 2012.

chunki ular bevosita narxning tarkibiga kiritiladi. Odatda, ular byudjetga korxonalardan, tashkilotlardan va xo'jaliklarning boshqa tarkibiy qismlaridan tushadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, haqiqiy to'lovchilar-narxni shakllantiruvchi va tegishli soliqlarni to'lovchilardir. D.Rikardoning ta'kidlashicha, soliq daromaddan olinadimi yoki kapitaldan olinadimi, baribir pirovard natijada ular davlat tomonidan soliqqa tortiladigan tovarlar miqdorini kamayishiga olib keladi. D.Rikardo turli tovar guruhlariga nisbatan soliqlarni belgilashda tabaqalashgan yondoshuvni yoqlab chiqdi. Uning fikriga ko'ra, shohona predmetlarga nisbatan belgilanadigan soliqlar birinchi ehtiyoj predmetlariga nisbatan belgilangan soliqlarga qaraganda bir qator afzalliklarga egadir. Ular daromaddan to'lanadi va shuning uchun mamlakatning ishlab chiqarish kapitalini kamaytirishga olib kelmaydi.

Demak, D.Rikardo soliqlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra Dj.Keynsning soliqlar xususidagi ilmiy izlanishlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, u to'g'ri soliqlarni egri soliqlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan afzal ekanligini e'tirof etadi. U ayniqsa, aholidan olinadigan daromad solig'iga katta e'tibor beradi. Dj.Keyns aholidan olinadigan daromad solig'ini progressiv stavkalarda olinishini taklif qildi. Uning fikriga ko'ra ortiqcha jamg'armalar soliqlar yordamida davlat foydasiga olib qo'yilishi kerak. Daromad solig'i, ayniqsa, mehnatsiz topilgan daromadga, kapitaldan olingan foydaga, merosga va boshqa soliq ob'ektlariga nisbatan o'rnatilganda uning jamiyatdagi roli foiz me'yorining rolikidan kam bo'lmaydi.

Mamlakatimizning taniqli iqtisodchi-olimlaridan T.Malikov, O.Olimjonov, N.Haydarov, X.Sobirov, Q.Yahyoevlar soliqlarni tadqiq qilish jarayonida ularni to'g'ri va egri soliqlarga ajratish zarurligini hamda ular o'rtasida oqilona nisbatni shakllantirish masalasining dolzarbligini e'tirof etganlar. To'g'ri soliqlar bevosita daromaddan yoki soliq to'lovchilarga tegishli bo'lgan mulklardan olinadi. Egri soliqlar esa, tovarlarni sotish aylanmasidan, xizmatlar ko'rsatish hajmidan ularning bahosiga qo'shimcha shaklda undiriladigan soliqlardir.

To'g'ri soliqlarning asosiy turlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, aholidan olinadigan daromad solig'i va mol-mulk soliqlari kiradi.

To'g'ri soliqlar tovarlar bahosini o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, lekin ular korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biz quyida O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida to'g'ri soliqlarning tarkibini va undagi o'zgarishlarni tahlil qilamiz.

3-jadval

To'g'ri soliqlarning Davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi o'rni⁹

T/R	Ko'rsatkichlar	2009	2010	2011	2012	2013	2013 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi, punkt
1.	Davlat byudjeti daromadlari –jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
2.	Shu jumladan: to'g'ri soliqlar	27.2	26.1	26.2	25.2	26.2	-1,0

Keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2009-2013 yillar mobaynida to'g'ri soliqlarning mamlakat davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, xalqaro byudjet amaliyotida shakllangan tendentsiyalar nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, mazkur tendentsiyalarga muvofiq, bozor iqtisodiyoti sharoitida to'g'ri soliqlarning davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i barqaror tarzda saqlab turilishi yoki o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi lozim.

Endi biz mamlakatimiz davlat byudjetining daromadlari hajmida to'g'ri soliqlarning salmog'ini pasayish tendentsiyasini yuzaga kelish sabablarini aniqlash uchun to'g'ri soliqlarning tarkibini tahlil qilamiz.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblangan. –Toshkent, 2013 y.

**O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida to'g'ri soliqlarning
tarkibi va dinamikasi¹⁰ (foizda)**

Ko'rsatkichlar	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, punkt
To'g'ri soliqlar–jami Shu jumladan:	100,0	100,0	100,0	X
-yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	4,9	4,4	5,0	+0,1
-savdo va umum. ovq.. korxonalaridan yagona soliq to'lovi	3,3	3,4	3,2	-0,1
-mikrofirma va kichik korxonalaridan yagona soliq to'lovi	2,3	2,6	3,0	+0,7
-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	11,1	11,5	11,0	-0,1
-tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	1,1	1,1	1,4	+0,3

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining to'g'ri soliqlar umumiy hajmidagi salmog'i sezilarli darajada o'zgarmagan.

Agar ushbu soliqni to'g'ri soliqlar tarkibida yuqori salmoqqa ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, u holda 2011-2013 yillar mobaynida to'g'ri soliqlarning davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'ini pasayish tendentsiyasiga ega bo'lganligining asosiy sababi, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining to'g'ri soliqlar hajmidagi salmog'ini pasayishidir, degan xulosani shakllantirish mumkin. Ushbu davrda to'g'ri soliqlarning asosiy turlaridan biri bo'lgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovining to'g'ri soliqlar hajmidagi salmog'i 0,1 punktga kamaygan.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblangan. –Toshkent, 2013 y.

Tahlil natijalaridan ma'lumki, hozirgi vaqtda to'g'ri soliqlar ichida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, mazkur soliq ko'proq o'zining fiskallik funksiyasini bajarmoqda. Bu holat soliq stavkalarini nisbatan yuqori ekanligida va eng past stavkalarini daromadlarning katta bo'lmagan qismiga nisbatan o'rnatilganligida namoyon bo'ladi. 2013 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng past stavkasi 8 foiz bo'lib, u eng kam ish haqining 5 barobari miqdoridagi daromad solig'iga nisbatan qo'llanildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadi soliq stavkalarini pasaytirish kontsepsiyasini davom ettirish va 3 pog'onali soliq stavkalaridan 2 pog'onali soliq stavkalariga o'tish hisoblanadi.

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, Respublikamiz byudjet amaliyotida to'g'ri soliqlarning umumiy hajmida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i egallaydi. Mazkur soliqlarning salmog'ini pasayish tendentsiyasining yuzaga kelganligi asosan, soliq stavkalarini sezilarli darajada pasaytirilganligi bilan izohlanadi.

Respublikamizda to'g'ri soliqlarning umumiy hajmida sezilarli salmoqni egallaydigan soliq turlaridan biri kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq to'lovi hisoblanadi. 2013 yilda mazkur soliqning to'g'ri soliqlar tarkibidagi salmog'i 3,0 foizni tashkil qildi. Shunisi xususiyatliki, ushbu holat respublikamizda kichik biznes korxonalari tomonidan yaratilgan mahsulotlarning YaIMdagi ulushini tahlil qilingan davr mobaynida sezilarli darajada o'sganligi bilan izohlanadi. Masalan, 2007 yilning 1 yanvar holatiga mazkur ko'rsatkich respublika bo'yicha 29,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilning 1 yanvar holatiga kelib uning darajasi 54,5 foizni tashkil qildi.

Mamlakatimizda kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlanishi hukumatning kichik biznes korxonalariga yaratayotgan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2001 yil 10 iyuldagi 294-son qaroriga muvofiq kichik biznes korxonalari eksport tushumining 50 foizini majburiy sotishdan ozod qilindi. Bundan tashqari, ularga naqd valyutada tovarlar va xizmatlarni eksport qilishga ruxsat etildi.

Kichik biznes korxonalariga yaratilgan muhim sharoitlardan yana biri, ularga imtiyozli kreditlar berish tartibini yo'lga qo'yilganligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes korxonalariga berilgan imtiyozli kreditlardan olingan foizli daromadlar soliqqa tortilmaydi.

Egri soliqlar mahsulot bahosiga yoki xizmat ta'rifiga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlar ob'ektini belgilashda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilishi bilan haqiqatda yangi qiymatning taqsimlanishida ishtirok etadi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli o'laroq soliq to'lovchining daromadi yoki mol-mulkiga bevosita bog'liq emas. Shu sababli, egri soliqqa tortish jarayonida yuzaga keladigan soliq yuki soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmaydi.

Egri soliqlar asosan xazinaga molik ahamiyatga ega, chunki bu soliqlar tovarlarni sotish, ish va xizmat ko'rsatishdan tushgan umumiy mablag'lardan bir qismini muntazam ravishda byudjetga olish imkonini beradi. Bu soliqlar davlat byudjetining barqaror daromadlari bo'lib, ular sotilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatdan uzluksiz tushib turadigan pulga yaqin bo'lgan tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatining miqdoriy ko'rsatkichlariga va ularning to'lov muddatlariga bog'liq emas.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan oraliq tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Bunda ishchi kuchi bilan bog'liq xarajatlar hisobga olinmaydi. Ushbu bildirilgan fikrdan kelib chiqadiki, qo'shilgan qiymatni ishchi kuchiga qilingan xarajatlar (ishlab-chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi

xodimlarga berilgan ish haqi, mukofotlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar) va tovarni ishlab chiqarish natijasida olingan foyda summasiga teng bo'lgan miqdor sifatida ham ko'rish mumkin.

Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. Tovarlarini ishlab chiqarish va sotish jarayonida ishtirok etuvchi har bir ishtirokchi qo'shilgan qiymatning ustiga o'zining hissasini qo'yadi. Shuning uchun tovarlarni va xizmatlarni qiymati ularni ishlab chiqarish va sotish jarayonida qo'shilgan qiymatlarning umumiy summasiga teng.

Hozirgi vaqtda halqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlari bo'lib, QQS, aktsiz solig'i va boj solig'i hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida QQS birinchi marta 1992 yilda 30 foizli stavkada joriy qilingan. Buning natijasida oborot solig'i va sotishdan olingan soliqlar bekor qilindi. 1992 yildan 2004 yilga qadar QQSning stavkalari bir necha marta qayta ko'rib chiqildi, jumladan, 1994 yilning iyul oyidan boshlab u 20 % qilib belgilandi, 1995 yilda 18 foizga tushirildi, 1997 yilda esa 17% qilib belgilandi. Respublikamizda QQSning stavkasi 1998 yildan boshlab 20 foizni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida QQS hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi.

Egri soliqlarning 2-turi aktsiz solig'i hisoblanadi. Aktsiz solig'i egri soliq sifatida tovarlar va xizmatlar bahosining tarkibida hisobga olinadi hamda mahsulotlarning (xizmatlarning) jami sotish oboroti summasidan hisoblanadi. Aktsiz solig'i to'liq respublika byudjetining daromadlar qismiga kelib tushadi va uning soliq yuki iste'molchilar zimmasida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida aktsiz solig'i egri soliqlarning asosiy turlaridan biri hisoblanadi va davlat byudjeti daromadlarining 18 foizigacha bo'lgan qismini ta'minlaydi.

Endi biz egri soliqlarning O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari tarkibidagi o'rnini tahlil qilamiz.

5-jadval

**Egri soliqlarning davlat byudjeti daromadlari
tarkibidagi o'рни¹¹ (foizda)**

Ko'rsatkichlar	YILLAR		
	2011	2012	2013
Davlat byudjeti daromadlari - jami	100	100	100
Egri soliqlar (%)	53,5	54,3	51,9

5-jadval ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2011-2013 yillar mabaynida egri soliqlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i kamayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bizning fikrimizcha, mazkur tendentsiyaning mavjudligi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, QQS va aktsiz solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo'yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi davlat byudjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqazo qiladi. Bu esa, QQS, aktsiz solig'i kabi barqaror daromad

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblandi. –Toshkent, 2012 y.

manbalarini byudjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog'ini ta'minlashni taqazo qiladi.

Endi biz egri soliqlarning tarkibi va dinamikasini tahlil qilamiz.

6-jadval

**O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida egri soliqlarning
tarkibi va dinamikasi¹² (foizda)**

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2011	2012	2013
Egri soliqlar	100	100	100
Qo'shilgan qiymat solig'i	49,1	51,0	52,8
Aktsiz solig'i	25,2	26,2	24,5
Boj to'lovi	18,8	19,4	17,8
Tovar olib kirganliklari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yig'im	2,1	2,0	2,3
Transport vositalaridan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganliklari uchun soliq	1,1	1,4	1,5

Yuqoridagi 6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, egri soliqlar bo'yicha tushumlarning umumiy hajmida salmog'iga ko'ra asosiy o'rinni QQS va aktsiz solig'idan olingan tushumlar egallaydi. Xususan, 2013 yilda ikkala soliq turi bo'yicha olingan tushumlar summasi egri soliqlar umumiy summasining 70 foizdan ortiq qismini tashkil qildi.

QQS O'zbekiston Respublikasi soliq amaliyotida egri soliqlar asosiy turi sifatida muhim o'rin tutadi. 2011-2013 yillar mobaynida QQSning egri soliqlar hajmidagi salmog'ini yuqori darajasi saqlanib qolgan. Ammo 2013 yilda bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 3,7 punktga oshgan. Ushbu oshish aktsiz solig'i, boj to'lovlari va boshqa egri soliqlarning salmog'ini kamayishi hisobiga yuz bergan.

¹² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblandi. –Toshkent, 2012 y.

O'zbekiston Respublikasi soliq amaliyotida jismoniy shaxslardan transport vositalari solig'ini undirishni engillashtirish maqsadida 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab soliq summasini yoqilg'i-moylash mahsulotlari narxi tarkibida undirish joriy qilindi. 2011 yilda birgina benzin yoqilg'isi bo'yicha jismoniy shaxslardan undirilgan soliq miqdori 2000 yildagiga nisbatan 7,8 martaga, 2001 yildagiga nisbatan esa 7,1 martaga yuqori bo'ldi. Bu esa, mazkur soliqni davlat byudjeti daromadlarining tarkibidagi ahamiyatini oshib borayotganligidan dalolat beradi.

2.2. Kichik korxonalarni soliqqa tortishda belgilangan soliq siyosatining yo'nalishlari

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining moddiy asosini ta'minlashda kichik biznes alohida ahamiyatga egadir. Hozirgi paytda mamlakatimizda xususiy sektor va kichik biznesni rivojlantirish eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Bu soha jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsatib, fuqarolar hayotining, shuningdek, davlatning muayyan tarixiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiradi. Shu bois Prezidentimiz ham o'z nutqlarida to'xtalib o'tib, shunday degan edilar: «Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash, bunda potentsial xorijiy investorlarni izlab topish, bo'lg'usi sarmoyadorlar bilan aloqa o'rnatish, qo'shma korxonalar ochish, ular uchun qulay sharoitlar yaratish masalasi iqtisodiyotda ustivor deb hisoblanashi lozim».¹³

Yagona soliq to'lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to'lovi stavkalari 2014 yil uchun Prezidentning 2013 yil 25 dekabrda 2099-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, quyidagicha tabaqalashtirilgan:

¹³ Karimov I. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T.:O'zbekiston, 2005. 447-b.

**Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq
to'lovi stavkalari¹⁴**

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-7-bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	6*
2.	Sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun	5
3.	Ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, matbaa korxonalari, teleradiouzatish kompaniyalari uchun	5
4.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	5
5.	Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (bojxona brokerlari) uchun	6
6.	Lombardlar	30
7.	Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
8.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (9-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
9.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
10.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini sotish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan (ijaraga berishdan olinadigan daromad 60 foizdan yuqori bo'lgan) korxonalar uchun	30
11.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo mahsulotlaridan tashqari) eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ortiq foiz	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi
12.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10%ga pasaytiriladi

*) Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga berayotgan korxonalar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

**) Haq summasiga (yalpi daromadga) nisbatan foizlarda.

¹⁴ O'zR Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-sonli qaroridan olindi.

Yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan yagona soliq to'lovi to'lovchilari bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida hisob yuritishlari va tegishli stavkalardan kelib chiqqan holda yagona soliq to'lovining hisob-kitobini amalga oshirishlari kerak.

Agar mikrofirma va kichik korxonalar, asosiy faoliyati bilan bir qatorda, boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ushbu faoliyat turlari bo'yicha ular alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning mazkur toifasi uchun qonunda nazarda tutilgan soliqlar, yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalari hamda ta'limni rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashlari shart.

Soliq kodeksining 358-moddasiga asosan yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilingan. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Xiva tuman mahalliy byudjetining daromadlari tarkibi¹⁵

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar		2011 y	2012 y	2013 y
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	1694823	2190821	2690821
2	Yuridik shaxslar foyda solig'i	325417	487920	535811
3	Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq	179210	199812	215262
4	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq	47895	50231	51709
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1450231	1874102	1912155
6	Dehqon bozorlaridan bir martalik yig'im	25708	29401	30192
7	Jismoniy shaxslar transport vositalari uchun benzin, dizel va suyultirilgan gaz iste'moli uchun soliq	195058	217841	249040
8	Boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar	4123	4879	5061
9	Mahalliy soliqlar va yig'imlar	276230	280012	284293
10	Davlat boji	65784	79810	83605
11	Yig'imlar va turli soliqsiz daromadlar	7200	7918	8634
12	Suv resurslaridan foydal. uchun soliq	68970	71003	72944
13	Musodara qilingan tovarlarni sotish va jarimalardan tushumlar	35804	63570	96329
14	Kichik korxonalar uchun yagona soliq	1142003	1187810	1170127
15	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	27104	30289	32563
16	Ijaraga berilgan mol-mulkdan ijara to'lovlari	403	674	719
17	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslardan soliq	57809	74256	98103
18	Aktsiz solig'i	1029	2130	3684
19	Yuridik va jism. shaxslar undr. yer solig'i	84157	89702	931062
20	Yil boshidagi byudjet mablag'lari qoldig'i	20139	42189	50178
JAMI DAROMADLAR		47688381	60478807	72737990
O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha olingan mablag'lar		417852	598440	690797
Subventsiya jami		1902398	2015894	2433214
DAROMADLAR HAMMASI		70890887	86622149	110362010
Xarajatlarni qoplash uchun ajratilgan mablag'larning qoldiqlari		29415	59800	97193
BALANS		71185032	87220147	110459203

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xiva tuman mahalliy byudjetining jami tushumlari 2011 yilda 47688381 ming so'mni, 2012 yilda 60478807 ming so'mni, 2013 yilda esa 72737990 ming so'mni tashkil qilgan. Mahalliy byudjet daromadlarining 2013 yildagi manbalarini tahlili etadigan

¹⁵ Xiva tuman moliya bo'limining F-3 ma'lumotnomasi asosida tayyorlandi.

bo'lsak, daromadlar tarkibida to'g'ri soliqlar salmog'i 34,5 foizni, egri soliqlar 45,5 foizni va boshqa soliqlar hamda to'lovlar 20,0 foizni tashkil qilmoqda.

9-jadval

Xiva tuman mahalliy byudjeti solikli daromadlari tarkibida yagona soliq to'lovining salmog'i¹⁶

ming so'mda

Ko'rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	summa	%	summa	%	summa	%
Mahalliy byudjetning jami solikli daromadlari	47688381	100	60478807	100	72737990	100
Mahalliy byudjetga tushadigan yagona soliq to'lovi (mikrofirma va kichik korxona)	1142003	2,3	1187810	1,9	1170127	1,6

Biz yuqorida keltirilgan jadvalda soliq tushumlari tarkibini jamlangan holatda o'rganib chiqdik, mazkur jadvalda Xiva tuman mahalliy byudjetining jami solikli tushumlari uch yillik ko'rsatkichlar asosida keltirilgan va unda yagona soliq to'lovining salmog'i tahlil qilingan.

Mikrofirma va kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq tushumi 2011 yilda 1142003 ming so'mni yoki mahalliy byudjet daromadlarining 2,3 foizini, 2012 moliya yilida esa 1187810 ming so'mni yoki byudjet daromadlarining 1,9 foizini tashkil qilgan. 2013 yil uchun yagona soliq to'lovidan 1170127 ming so'm mablag' byudjetga jalb qilingan va soliq summasi byudjet daromadlarining 1,6 foizini tashkil etgan.

Ko'rib turganimizdek, yagona soliq to'lovi bo'yicha tushum miqdori yillar bo'yicha o'zgarib turibdi, ya'ni absolyut summada ham nisbiy ko'rinishda ham o'sib borgan. Bu holatga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy qismi umumbelgilangan soliqqa tortish rejimidan solddalashtirilgan soliq rejimiga, ya'ni yagona soliq to'lovi to'lashga o'tganligi bilan izohlanadi.

¹⁶ Xiva tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

**“AAA” MChJning 2013 yil uchun yagona soliq
to’lovi hisob-kitobi¹⁷**

ming so’mda

Ko’rsatkichlar	Satr kodi	Jami	shu jumladan, yagona soliq to’lovi to’lovchisi to’g’risida ma’lumotda ko’rsatilgan faoliyat turlari bo’yicha (01- varaq)			
			asosiy faoliyat turi - 1	2	3	4
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum	010	2086314,4	2086314,4			
Boshqa daromadlar (Yagona soliq to’lovi hisob-kitobi 1- ilovasining 010-satri)	030	2218,2	2218,2	X	X	X
Soliqqa tortiladigan yalpi tushum (010-satr + 030-satr)	040	2088532,6	2088532,6			
Imtiyozlar – jami (0501-satr + 0502-satr)	050	590516	590516			
shu jumladan:						
Soliqqa solinadigan baza – jami (040-satr – 050-satr)	060	1498016,8	1498016,8			
shu jumladan hisoblangan:						
Yagona soliq to’lovining belgilangan stavkasi	070	X	6%			
Yagona soliq to’lovining tuzatilgan stavkasi:	080	X				
Yagona soliq to’lovi summasi – jami (0901-satr + 0902-satr)	090	119841,3	119841,3			
Hisob-kitob bo’yicha hisoblangan yagona solik to’lovi summasi (090-satr – 110-satr)	120	119841,3	X	X	X	X
O’zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg’armasiga chegirilgan holdagi yagona soliq to’lovi summasi [120-satr – (120-satr x 5%)]	130	113849	X	X	X	X
Avvalgi davr uchun hisob-kitob bo’yicha yagona soliq to’lovining hisoblangan summasi (130-satr)	140	56502	X	X	X	X
O’zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg’armasiga o’tkaziladigan yagona soliq to’lovi summasi [(120-satr – (140-satr / 95%)) x 5%]	160	5992,05	X	X	X	X

¹⁷ Xiva tuman DSI ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

**“AAA” MChJning 2013 yil uchun boshqa
daromadlari tarkibi¹⁸**

ming so'mda

Ko'rsatkich	Satr kodi	Summa
Boshqa daromadlar – jami (020 – 190-satrlar summasi)	010	2218,2
shu jumladan:		
soliq to'lovchining asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni chiqib ketishidan oladigan daromadlar	020	
mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar	030	600
asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar	040	
boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar	050	
inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar	060	
hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar	070	
majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar	080	
talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar	090	
jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzida olingan daromadlar	100	
xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadalar	110	
birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar	120	
undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya	130	1166,6
valyuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi ijobiy farq	140	451,6
chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha olingan daromadlar	150	
dividendlar	160	
protsentlar	170	
royalti	180	
tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar – jami	190	
shu jumladan:	1901	
	1902	
	1903	
	1904	
	1905	

¹⁸ Xiva tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

“AAA” MChJning byudjetga to'lovlari to'g'risida ma'lumot¹⁹

ming so'mda

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisob bo'yicha to'lanadi	Haqiqatda to'langan
Foyda solig'i (satr 281+282)	280	-	-
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	290	51532	44549
Shu jumladan: shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ajratmalar	291	2666	2343
Yagona soliq to'lovi	370	113849	56502
Boshqa soliqlar	400	5992,3	2974
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lov	420	5883	4207
Yagona ijtimoiy to'lov	440	56479	49982
Jami byudjetga to'lovlar summasi (280 dan 440 satrgacha, 281 va 282 satrdan tashqari)	480	236401	160557

Yagona soliq to'lovini tahlil qilish maqsadida Xiva tuman DSI dan ro'yxatdan o'tgan “AAA” MChJning ma'lumotlarini o'rganib chiqdik. Mazkur jamiyat tomonidan 2013 moliya yilida tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan 2086314,4 ming so'm sof tushum olingan. Bundan tashqari 2218,2 ming so'mlik boshqa daromadlar ham tushum qilingan. Jamityaning soliqqa tortiladigan yalpi tushumi 2088532,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, undan 590516 ming so'mlik imtiyoz summasi chegirib tashlangan. Natijada soliqqa tortiladigan baza 1498016,8 ming so'mni tashkil qilib, undan 6%lik stavkada 119841,3 ming so'm yagona soliq to'lovi hisoblangan.

2012 yilda jamiyat tomonidan 236401 ming so'm soliqlar va boshqa to'lovlar hisoblangan hamda ularning tarkibida yagona soliq to'lovi 113849 ming so'mdan iborat bo'lib, jamiga soliq'larga nisbatan 48,2 foizni tashkil qilgan.

¹⁹ Xiva tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

3-BOB. IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINI OQILONA YURITISH MASALALARI

3.1. Kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish yo'nalishlari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining zarur elementi hisoblanib, bir qator muhim ustuvor vazifalarni bajaradi. Bunday vazifalar qatoriga raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, shu orqali aholining bandligini ta'minlash hamda turmush tarzini yaxshilash, shuningdek aholining past va yuqori daromadga ega bo'lgan qatlamlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish kabi vazifalarni kiritish mumkin. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti to'xtalib, – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'рни tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina o'tgan yilning o'zida yurtimizda 26 mingdan ziyod kichik biznes sub'ekti ish boshladi, ushbu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni yil oxiriga kelib 190 mingtaga etdi. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 31 foizdan iborat edi. Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda. Ana shu raqamlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda²⁰” deb ta'kidladilar.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, xo'jalik faoliyatini yuritishda kichik biznes sub'ektlari nechog'lik ko'p erkinlikka ega bo'lsalar, bozorda

²⁰ I.A.Karimov. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Xalq so'zi. 18 yanvar, 2014 yil.

raqobat muhiti shunchalik tez rivojlanadi. Albatta, davlat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida raqobat muhitini shakllantirishda faol ishtirok etishi, erkin raqobatni himoya qiluvchi antimonopol siyosat yurgizishi va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy richaglar orqali, jumladan soliqlar vositasida rag'batlantirishi zarur. Kichik biznes sub'ektlari iqtisodiyoti rivojlangan AQSh, G'arbiy Evropa mamlakatlari, Yaponiya, janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarining taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga qaramay, dunyo mamlakatlarida soliq to'lovchilarga soliq solishning qulay shartlarini yaratilganligi bo'yicha tadqiq etilganda, har doim ham rivojlangan davlatlar yuqori reytingni egalamaydi. Bu tabiiy holat albatta, chunki rivojlanayotgan yoki rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlar uchun har jihatdan maqbul investitsion muhitni yaratish maqsadida eng qulay soliqqa tortish tizimini yaratishga katta e'tibor beradilar. PricewaterhouseCoopers (PWC) kompaniyasi tomonidan tayyorlangan, Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasi hisobotlarida e'lon qilingan «Paying Taxes 2012» reytingi ma'lumotlariga ko'ra eng qulay soliq tizimi joriy etilgan o'n beshta mamlakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi.

Pricewaterhouse Coopers kompaniyasi tadqiqotlarining ko'rsatishicha, eng sodda soliq tizimi Yaqin Sharq mamlakatlariga to'g'ri keladi, sanoati rivojlangan Evropa mamlakatlarida bir muncha murakkab soliq tizimini ko'rishimiz mumkin. Evropa davlatlaridan Daniya bu yo'nalishda bir muncha yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lib, ushbu davlatda 10 ta soliq amal qiladi hamda umumiy soliq stavkasi 27,5 foizga teng. Daniyadan reytingda bir pog'ona yuqorida turgan Lyuksemburg davlatida soliqlar soni 23 ta bo'lsa-da, lekin umumiy soliq stavkasi 20,8 foizni tashkil etadi.

Eng qulay soliq tizimi joriy etilgan mamlakatlar²¹

T/r	Mamlakat	Jami soliqlar soni	Umumiy soliq stavkasi (barcha soliqlarning stavkasi yig'indisi)
1	Maldivi orollari	3	9,3
2	Qatar	3	11,3
3	Gonkong	3	23,0
4	Singapur	5	27,1
5	Irlandiya	8	28,8
6	BAA	14	14,1
7	Saudiya Arabistoni	14	14,5
8	Ummon	14	22,0
9	Mavrikiy, Kiribati	7	25,0; 31,8
10	Kanada	8	28,8
11	Quvayt	15	15,5
12	Baxreyn	25	15,0
13	Lyuksemburg	23	20,8
14	Daniya	10	27,5
15	Shveytsariya	19	30,1

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan Maldivi orollari davlatida eng qulay soliqqa tortish tizimi joriy etilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davlatda uchta soliq turi joriy etilgan bo'lib, uning umumiy stavkasi 9,3 foizni tashkil etadi. Qatar va Gonkongda ham uchtdan soliq to'lovi amal qiladi, lekin ushbu davlatlarda soliqlarning umumiy stavkasi mos ravishda 11,3 % va 23,0 %ni tashkil etadi.

Tahlillar iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda soliq tizimining qulayligi juda ham ko'zga tashlanadigan darajada emasligi ko'rsatib turibdi. Masalan, yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda dunyoda eng yuqori o'rinlarni egallaydigan Lyuksemburg 13 o'rinda, Shveytsariya 15 o'rinni egallagan. Dunyoning 183 ta davlatlari bo'yicha o'tkazilgan reyting natijalarining oxirgi o'rinlarini Venesuela (jami 70 ta soliq to'lovi, umumiy stavka 63,5 %, 183 o'rin), Kongo respublikasi (jami 61 ta soliq to'lovi, umumiy stavka 65,9 %, 182 o'rin), Ukraina (jami 135 ta soliq to'lovi, umumiy stavka 57,1 %, 181 o'rin) davlatlari egallab turibdi.

²¹ <http://top-rating.info/1/138>. Reyting stran po nalogam.

Mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, ular uchun ixtiyoriy ravishda soliq solishning soddalashtirilgan tartibi yoki umumbelgilangan tartibda soliqlarni tanlash huquqiga berilgan. Hukumatimiz tomonida oxirgi yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'zining samarasini bermoqda. Masalan, yagona soliq to'lovining asosiy stavkasi 2005 yilda 13 foizga teng bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib sanoat sohasi uchun stavka 5 foizni tashkil etmoqda, ushbu islohotlarning ijobiy samarasi sifatida mazkur yillarda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 38,2 foizdan, 2013 yilda 55,8 foizga oshdi. Lekin so'nggi yillarda amaldagi soliqqa tortishning soddalashtirilgan usuli o'zining ijobiy tomonlari bilan birga me'yoriy miqdorlarning kiritilayotganligi bilan ko'pgina muammoli tomonlarini ham nomoyon etmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda 2010 yildan boshlab yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalar asosida, biroq ma'lum bir faoliyat turlari bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy miqdorlaridan kam bo'lmagan miqdorda soliqlarni hisoblab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Qabul qilingan me'yoriy miqdorlarni o'ziga xosligiga qarab ularni qo'yidagi uch guruhga ajratish mumkin

14-jadval

Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishdagi me'yoriy miqdorlar

Xujjat raqami va sanasi	Eng kam me'yorlar tadbiriq qilinadigan soliq to'lovlar	Soliq turi	Qo'llaniladigan me'yoriy miqdorlarning hususiyatlari
№2449 04.04.2013	Chakana savdo korxonalari	Yagona soliq to'lovi	Yagona soliq to'lovi miqdori aynan shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq summasidan kam bo'lmashligi lozim
№2203 03.03.2011	YaST to'lovchi korxonlar (chakana savdo va oilaviy korxonalardan tashqari)	Yagona soliq to'lovi	Egallab turgan er maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan er solig'ining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda
№2200 23.02.2011	Chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish tashkilotlari	Yagona ijtimoiy to'lov, sug'urta badali, daromad solig'i	Korxonalarining faoliyat turiga mos ravishda Nizomda belgilangan me'yor bo'yicha hisoblab chiqiladi

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan me'yoriy miqdorlarning ikkitasi yagona soliq to'loviga va faqat bittasi yagona ijtimoiy to'lovga tegishlidir. Bunday me'yoriy miqdorlar avval boshdanoq tadbirkorlik sub'ektlarining soliqlardan qochish orqali hufiyona iqtisodiyotni kuchaytirib yuborishiga qarshi choralar sifatida qabul qilingan. Lekin me'yoriy miqdorlarni amaliyotda qo'llanishida ayrim muammolarning mavjudligi, ushbu holat yuzasidan mamlakatimizning soliq tizimida me'yoriy miqdorlarning yagona soliq to'lovi va boshqa soddalashtirilgan tartibdagi soliqlar uchun foydalanishning samaradorligi hususida jiddiy o'ylab ko'rish dolzarbligini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda ushbu me'yorlarning soliq amaliyotida kutilayotgan samarani bermayotganligi mazkur yo'nalishda hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar borligidan dalolat beradi. Har qanday tadbirkor ko'proq foyda olishga, uni maksimallashtirishga intiladi, o'z navbatida soliq xarajat elementi bo'lgani uchun uni minimallashtirishga harakat qiladi. Lekin mazkur me'yorning joriy etilganligi, mazkur me'yorlar bo'yicha soliq to'layotgan kichik biznes sub'ektlarining yagona soliq to'lovini minimallashtirish yuzasidan ishlab chiqadigan soliqlarni rejalashtirish choralarini ahamiyatsiz qilib qo'yadi.

Me'yoriy miqdorlarning mohiyatidan kelib chiqib ularni nima maqsadga qaratilganini tahlil qilsak, quyidagi fikrlarga kelishimiz mumkin:

- soliqlardan qochmoqchi bo'lgan soliq to'lovchilardan soliq summasining me'yoriy miqdorini davlat byudjetiga undirish ko'zda tutilgan;
- me'yoriy miqdorlarning yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan qat'iy soliq miqdoriga bog'lab qo'yilganligi;
- me'yoriy miqdorlarning vevosita faoliyatiga bog'liq bo'lmagan yoki daromad olishda foydalanilmayotgan ob'ektga qaratilganligi (masalan, egallab turgan er maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan er solig'ining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdordagi me'yoriy miqdor).

– Soddashtirilgan soliqqa tortish tartibiga ko'ra yagona soliq to'lovini to'lash mexanizmining afzallik va kamchiliklarini quyidagicha:

– Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yagona soliq to'lovini to'lash tartibi qanchalik qulay bo'lmasin, o'ziga xos kamchilik jihatlari ham mavjud. Yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmi soddashtirilgan sari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini yuritish sifati pasayib boradi. Chunki bunday soliqqa tortiz tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan mukammal buxgalteriya hisobini yuritishni talab etmaydi. Bundan tashqari yagona soliq to'lovining yalpi tushumdan undirilishi soliqlarning adolatlilik printsipini buzadi, sababi yagona soliq to'lovini hisoblash jarayonida korxonaning xarajatlari hisobga olinmaydi. Shuningdek yagona soliq to'lovini to'lash kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy natijalariga bog'liq bo'lmay, kichik tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy faoliyatini zarar bilan yakunlagan sharoitda ham soliq undiriladi hamda umumbelgilangan tartibdagi singari o'tgan yillarda ko'rilgan zararlarni soliq solinadigan bazadan chegirish imkoniyati mavjud emas.

15-jadval

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yagona soliq to'lovini to'lashning ijobiy va salbiy tomonlari

Afzallik tomonlari	Kamchiliklari
Soliq organlari talablarini bajarish bo'yicha vaqt sarfining kamayishi	Buxgalteriya hisobini yuritishga rag'batning yo'qligi
Soliq majburiyatini qisman bo'lsada oldindan ko'ra bilish	To'lanadigan soliqlar ko'rilgan moliyaviy faoliyat natijalariga bog'liq emas
Soliq idoralari ta'sirining cheklanganligi	Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ko'p yo'qotishlarning mavjudligi
Soliq yukining pasaytirilishi	Yagona soliq to'lovi to'lovchilarda haqiqiy xodimlar sonining yashirishga moyillik
Yagona soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'iga o'tish huquqining mavjudligi	Turli soliqqa tortish tartibidagi soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarda muammolarning yuzaga kelishi, ayrim soliq to'lovchilarning boshqa soliq rejimiga o'tish huquqining mavjud emasligi
Soliq hisobotlari sonining kamligi	Yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar sonining kamligi
	O'rnatilgan stavkalardan qat'iy nazar soliq to'lashda eng kam me'yorlarning mavjudligi

Umumiy xulosa qilinganda, mamlakatimizda soliqqa tortish nuqtai nazaridan kichik biznes sub'ektlari uchun qulay sharoit yaratilgan. Maxsus soliq rejimlari kichik korxonalarni asosiy soliq turlarini to'lashdan ozod qilib, ularning fiskal bosimini pasaytirmoqda, biroq mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan kelib chiqib, kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish zarur. Fikrimizcha, respublikamizda kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish amaliyotini quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq:

–kichik biznesni rivojlantirish orqali mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlashda jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmokda. O'ta dolzarb bo'lgan ushbu masalani hal etishda qishloq joylarda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes sub'ektlarini yangi ish o'rinlarini tashkil etish darajasiga mutanosib ravishda yagona soliq to'lovi stavkasi bo'yicha tabaqalashtirilgan pasaytiruvchi koeffitsientlarni qo'llash;

–yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlarini dastlabki ikki yil davomida soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortishda qo'llaniladigan me'yoriy miqdorlarni tatbiq etmaslik;

–kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish uchun sarf qilingan innovatsion, ilmiy – tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlari xarajatlarini yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solish bazadan chegirish amaliyotini joriy etish;

– kichik biznes sub'ektlarining investitsion faolligini soliqlar vositasida rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash natijasida mahsulot hajmini oshirishdan olingan daromaddan yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlarni qo'llash ijobiy samara beradi.

3.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Soliq siyosati va mamlakatimizdagi soliq organlari tizimining samarali isloh qilinishi iqtisodiyotimizning bozor iziga ko'chirishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri ekanligini hozirgi paytda deyarli hamma tan olayapti. Bugungi kunda soliqlar muammosi bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Juda keskin tanqidga uchrayotgan, juda qaynoq munozalarga sabab bo'layotgan isloh qilish bo'yicha tahlil ob'ekti va qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'layotgan soliqlar muammosidan bo'lak islohotlarning boshqa bir yo'nalishi yo'qdir. Boshqa bir tomondan esa, soliq tizimi bozor munosabatlarining eng muhim elementlaridan bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liqdir. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda mavjud soliq tizimini keskin qayta o'zgartirish to'g'risidagi berilayotgan takliflarga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshish zarurligini taqozo etmoqda. Bunday hollarda faqat bir daqiqalik samarani hisobga olmasdan, balki bu takliflarni mamlakat iqtisodiyoti va moliyasini barcha tomonlariga qay darajada ta'sir etishi, albatta inobatga olinmog'i lozim.

Ma'lumki, hozirgi davrning soliq siyosati asosida respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning Respublika iqtisodiy rivojlanishining besh tamoyili, ustivor yo'nalishlari yotadi. Respublikamizda soliq siyosatini ana shu tamoyillardan kelib chiqib, soliq sohasidagi tegishli chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik davridagi soliq siyosatiga e'tibor bersak, davlatimiz birinchidan, soliq tushumlarining umumiy summasida bilvosita soliqlar salmog'ini oshirib, bevosita soliqlar salmog'ini kamaytirib bormoqda. Jumladan, bu ko'rsatkich mustaqilligimizning dastlabki yilida, ya'ni 1991 yilda 0,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, aniqrog'i 2007 yilning yakuniga ko'ra 57,8 foizni tashkil qilmoqda. Ikkinchidan, resurs soliqlarining salmog'i byudjet daromadlaridagi ulushi oshib bormoqda. Uchinchidan, soliq yukini pasaytirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov 2002 yilning 1 yarim yilligiga bag'ishlangan

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishi yuzasidan ustuvor vazifalarni hal etishga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishida so'zlagan nutqidan quyidagi gaplarini keltirmoqchimiz: «Sodda qilib aytganda, xo'jalik va korxonalarga bu masalada engillik berish kerak, ularning elkasidagi soliq yukini kamaytirish lozim. Bugungi kunda Respublika birlashgan byudjetiga ana shunday to'lovlar ulushi yalpi ichki mahsulot hajmida amalda 35 % dan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki dunyo tajribasida byudjetga to'lanadigan soliq to'lovlarining maqbul normalari allaqachon shakllanib bo'lgan. Masalan, bunday normalar AQShda 26,1 % ni, Yaponiyada 22,6 %ni, Germaniyada esa 29,2 %ni tashkil etadi. Iqtisodiy rivojlangan boshqa mamlakatlarda ham shu holni ko'rish mumkin.» Prezidentimizning yukorida bildirilgan fikrlaridan so'ng respublikamizda soliq yukini kamaytirish borasida keskin ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, bu ko'rsatkich 2005 yilning yakunida YaIMga nisbatan (konsolidatsiyalashmagan byudjetsiz) 33,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda 31,4 foizni, 2007 yilda 28,7 foizni tashkil etdi.

To'rtinchidan, davlatimizning hozirgi kundagi soliq siyosatida yuridik shaxslarni eksportga mahsulot ishlab chiqarish va erkin almashtiriladigan valyutaga sotishi keng rag'batlantirilmoqda.

Beshinchidan, yuridik shaxslarning har-xil mehr shavkat fondlariga qilgan xarajatlari va nogironlarni ishga joylashtirishlari har tomonlama rag'batlantirilmokda.

Oltinchidan, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun ixchamlashtirilgan soliq tizimi joriy etilib, ularning faoliyatlaridan manfaatdor bo'lishlikka qiziqtirilmoqda. Lekin, hozirgi kunda respublikamizdagi olib borilayotgan soliq siyosatini etarli deb bo'lmaydi, chunki har bir davlatning bu borada olib borayotgan siyosatida, o'ziga yarasha yutuqlar va kamchiliklar bo'ladi, albatta. Lekin, mustaqillik davri boshlanishidan to bugungi kungacha respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq siyosatini hamda soliqqa tortish tizimini takomillashtirishda nazariy va amaliy kontseptsiyalarni ishlab chiqishda juda ko'p iqtisodchi olimlarimiz izlanishlarni olib borishib, bu borada o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirmoqdalar. Jumladan, respublikamiz soliq siyosatini keyingi yillarda

faollashtirish maqsadida iqtisodchi olimlarimizdan professor Q.A.Yahyoev o'zining risolasida²² quyidagilarni e'tiborga olishni zarur deb ko'rsatganlar:

- soliq sohasida davlat yo'l qo'ygan ba'zi xatoliklarni takrorlamaslik uchun soliqlar tarixini chuqur va puxta o'rganish;

- soliqqa tortish va uni undirish ishlarini arzonga tushushligiga erishish;

- soliq ob'ekti aniq, ixcham, to'lovchilarga va soliq idoralari xodimlariga soliqni hisoblash uchun oson va qulay bo'lishi zarurligi (chunki soliq to'risidagi ma'lumotlar oydin, rost ko'rsatilishi soliq tushumlarini ko'paytiradi);

- byudjetga soliqlarni to'liq va o'z vaqtida tushushini qiziqtirish maqsadida byudjetga ko'p, salmokli soliq to'layotgan soliq to'lovchilarga soliqlarning ma'lum qismini qoldirish;

- soliqlarning xazinaviy (fiskal) samaradorligini oshirish.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish soliq tizimiga ham muqarrar ta'sir ko'rsatadi. Soliq tizimi to'xtovsiz harakatlanuvchi mexanizm bo'lib, uzluksiz takomillashib bormog'i lozim. Bundan asosiy maqsad - korxonalar zimmasidagi soliq yukini makroiqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda muntazam kamaytirib borishdir. Soliqlar yukining yuqori bo'lishi korxonalarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga, zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan qayta qurollantirishga, aylanma mablag'larni ko'paytirishga mablag'lar yo'naltirish imkoniyatini keskin kamaytiradi. Bu esa oxir oqibatda ishlab chiqarish darajasining pasayishiga olib keladi. Natijada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy muammolari keskinlashuviga sabab bo'ladi.

Soliqlarning fiskal vazifasi birlamchi hisoblansada, iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasi ham muhimdir. Soliqlardan imtiyozlar berish, stavkalarni pasaytirish va boshka turli engilliklar yaratish iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish va ustivor tarmoqlarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Agar soliq solish mexanizmi adolat mezonlari doirasidan chiqib ketsa, u holda soliqni to'lay olmaslik xolatlari ro'y beradi hamda soliqdan qochishning turli yo'llari qidira boshlanadi. Shu

²² Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -57 b.

bois, soliq stavkalari va undirib olish usullarini joriy etishga oqilona yondoshish zarur.

O'zbekistonda mustakil soliq tizimi joriy etilgandan beri utgan davrda ko'plab ijobiy natijalarga erishildi. Davlat byudjetining asosiy xarajatlarini ta'minlashga etarli soliqlar va yig'imlar joriy qilindi. Ayni paytda esa soliq to'lovchilar toifalari uchun keng imtiyozlar tizimi ham qo'llanilmoqda. Biroq, yutuqlarimiz bilan bir qatorda soliqqa tortish tizimida muayyan muammolar ham borki, ular hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tadbirkorlarning moliyaviy faoliyatiga ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu bir tomondan, soliqlarning ko'pligi yoki ularning stavkalari yuqoriligida emas, balki soliqlarning hisoblash usullari va shakllariga oiddir.

So'nggi to'rt yil mobaynida byudjet daromadlari tarkibida bevosita (to'g'ri) soliqlar salmog'i 0,5 foizga kamaygan, bevosita (egri) soliqlar salmog'i esa 1,8 foizga ortgan. Bevosita (to'g'ri) soliqlar salmog'i pasayishining asosiy sababi, hozirgi kunda respublikamizda bevosita (to'g'ri) soliqlar salmog'ini kamaytirib, bevosita (egri) soliqlarnikini oshirish siyosati yuritilmokda. Bu erdagi asosiy maqsad soliqlar yukini mahsulot ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilar gardaniga o'tkazish va shu orqali korxonalarning manfaatdorligini oshirishni rag'batlantirishdan iboratdir. Shuning uchun asosiy to'g'ri soliqlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari yildan-yilga kamaytirilmoqda. Jumladan, 2008 yilda yuridik shaxslar foyda solig'i stavkasi amaldagi 15 foizdan 3 punktga 2009 yilda 2 punktga 2010 yil yana 1 punktga kamaytirildi, bundan tashqari imtiyozli stavkalar joriy qilindi, jismoniy shaxslarning daromad solig'i ham o'rtacha va yuqori stavkalari pasaytirildi.

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan bunday siyosat bugungi kunning eng oqil siyosatlaridan biridir. Chunki, bozor iqtisodiyotiga kirib borayotgan mamlakatimizda bevosita soliqlar salmog'ini pasaytirish va bilvosita soliqlardan unumli foydalanish o'ta murakkab iqtisodiy zaruratdir. Bunga biz quyidagicha talqin beramiz: birinchidan, bevosita soliqlarni muayyan chegarasidan ortiq olinishi soliq to'lovchilarning ishlab chiqarishdan manfaatdorligini so'ndiradi. Bilvosita soliqlarda

esa rasmiy to'lovchisi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ortuvchi, sotuvchi bo'lsa ham, haqiqiy to'lovchisi ularning iste'molchisidir. Ikkinchidan, bevosita (egri) soliqlar mohiyatan mahsulot (ish, xizmatni) sotuvchilarning moliyaviy ahvoriga hech qanday ta'sir etmasligi kerak. Ammo, buning uchun bevosita (egri) soliqlarga tortiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bahosining doimo o'zgarib turishini hisobga olib, soliq stavkalarini shunday belgilash kerakki, ishlab chiqaruvchilar bevosita (egri) soliqlar hisobiga mahsulot (ish, xizmatni) sotishda qiyinchiliklarga uchramasin, omborlarda tovarlar to'planib qolmasin. Bilvosita soliqlar mahsulot ishlab chiqaruvchilarga nisbatan doimo betarafligicha qolishi kerak.

Biroq, bevosita soliqlar hamda bilvosita soliqlar ichida haligacha ba'zi bir muammolar hanuzgacha saqlanib kelinmoqda.

Lekin, bizning fikrimizcha respublikamizda bugungi kunda bevosita soliqlar salmog'ini byudjet daromadlari tarkibida oshishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir deb o'ylaymiz. Uni soliqlar yukini ko'tarish hisobiga emas, balki tadbirkorlikni rivojlantirish, yuridik shaxslar daromadlari ko'lamini ko'paytirish orqali hal etilishi lozim. Bizning fikrimizcha, buning uchun tadbirkorlik sub'ektlariga erkinlik berish, ularning faoliyatiga turli to'siqlar ko'rinishida paydo bo'layotgan turli g'ovlarni olib tashlash maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda bevosita soliqlar turi ko'p, lekin ularning xaznaviy samaradorligini oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich bizda unchalik baland emas. Chunki ularning ob'ektlari har-xil bo'lib, hisoblash tartiblari turlichadir. Buning oqibatida korxonalarda yaratilgan daromad ushbu soliqlar manbai bo'lib qolmoqda. Demak, bevosita soliqlar qanchalik birxillashtirilsa, soliqlarni hisoblash va to'lash shunchalik oddiylashib, tezlashar ekan. Natijada ishlar kamayib, ijtimoiy xarajatlar va ketadigan vaqt qisqaradi. To'g'ri, bu ishlarni birdaniga qilib bo'lmaydi, lekin ularni kelgusi davrlar (yillar) uchun ishlab chiqiladigan soliq siyosatining strategiyasiga bir yo'nalish sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb hisoblaymiz.

Soliqlar turi ko'p bo'lgani bilan, ular osonlikcha byudjetga tushmaydi. Nazariyadan ma'lumki, imkoniyatdan ortiqcha soliq olinsa, iqtisodiy rivojlanish

sussayib ketadi. Shu bois respublikamizda soliq yukini kamaytirilishidan tashqari, yana soliqlarni soddalashtirish ham lozimdir. Bunday talab, soliqlarning oddiylik tamoyiliga mos kelishini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq siyosatini yanada takomillashtirish asosida chuqur o'ylab, oqilona qabul qilingan qarorlar turishi kerak. Ular bir tomondan, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini jiddiy kamaytirishga, ikkinchi tomondan, barcha darajadagi byudjet daromadlarini va byudjetdan tashqari fondlarning barqaror asosini saqlashni ta'minlashga qaratilmog'i lozim.

Bunda tadbirkorlik sub'ektimi, jismoniy shaxsmi – har-bir soliq to'lovchi nima uchun soliq to'layotganini yaqqol tasavvur etishiga erishish nazarda tutilishi kerak. Eng muhimi - soliqlarning oxir-oqibat mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilishi, ya'ni soliq to'lovchining o'ziga ijtimoiy to'lovlar, stipendiyalar, ta'lim va tibbiy xizmatlar, taraqqiy etgan infratuzilmalar va boshqa ne'matlar shaklida foyda keltirishini chuqur anglab olishlari juda muhimdir.

Shunday ekan, bizning fikrimizcha, moliyaviy munosabatlarning keyingi erkinlashtirish va chuqurlashtirish yo'lida soliq siyosatida zarur izchil o'zgarishlarni amalga oshirishda soliqlarning rag'batlantirish funksiyasini kuchaytirish va soliq siyosatini takomillashtirishda quyidagi yo'nalish va chora-tadbirlar uning asosini tashkil etishi lozim deb o'ylaymiz:

- bir-xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha soliq to'lovchilarni adolatlilik va tenglik tamoyili asosida soliqqa tortish;
- iqtisodiyotdagi soliq yukini yanada kamaytirish;
- ikki marta soliqqa tortishni oldini olish;
- soliqlarni soddaga, tushunarli va ko'p yilliligini ta'minlashda, soliq ma'murchiligi tizimini takomillashtirish va soliq solish mexanizmini tartibga solish;
- soliq qonunchiligini barqarorligini ta'minlash;
- byudjet daromadlarini shakllantirishda resurs va mulk soliqlari rolini oshirish.

XULOSA

Soliqlar iqtisodiy munosabatlar tarkibidagi eng asosiy moliyaviy munosabatlar tarmog'i bo'lib, iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyotning moddiy negizini tashkil etib, jamiyat rivojining moddiy manbai sifatida ijtimoiy ob'ektiv zaruriyatdir.

Darhaqiqat, soliqlar iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishni muhim elementlaridan biri bo'lib, shu bilan bir qatorda davlatni moliyaviy iqtisodiy tizimini tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi va iqtisodiyotga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aytish mumkinki, davlat o'z soliq tizimini tashkil qila turib, uni moliyaviy siyosatini amalga oshirish maqsadlarida ishlatishga harakat qiladi va shu bilan u tarkiban mustaqil yo'nalishga ega bo'lib, soliq siyosatini tashkil etadi.

Soliq siyosati - mamlakat bo'yicha ma'lum vaqtga belgilangan kontsepsiya, mezon va vazifalar, davlat iqtisodiy va moliyaviy siyosatning asosiy tarkibi, davlatning soliqqa tortish uslublari, soliq turlari, ularni to'lash tartiblarini takomillashtirishga bag'ishlangan maqsadli tadbirlaridir.

Har qanday mamlakatda qanday soliq siyosati yuritilayotgani va soliqqa tortish sohasidagi chora-tadbirlar qanchalik samarali ekanligi ko'p jihatdan iqtisodiy islohatlarning xarakteri va dinamikasini belgilaydi. Oqilona tashkil etilgan, yaxshi muvozanatlangan soliq tizimi, bozor iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hamda shu asosda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning asosiy vositalaridan biridir. Chunki davlat moliyaviy siyosati, makroiqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning mohiyati davlat va jamiyat oldiga qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda boshqa strategik maqsadlarni ro'yobga chiqarishga qo'llaniladigan iqtisodiy, huquqiy va boshqa vositalar, usullar yo'nalishlarining belgilanishi, real shart-sharoitlar aniq hisobga olingan holda, ulardan foydalanishga qaratilgandir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat moliyaviy siyosati o'tish davri bilan bog'liq bo'lgan tangliklarni tezroq bartaraf etish, makroiqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilashdan iborat bo'lgan vazifalarni bajarishga qaratilgandir.

Moliyaviy siyosatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida soliq siyosati katta ahamiyatga ega. Bu sohada davlat siyosati davlat uchun ham, bozor ishtirokchilari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, tadbirkorlar va boshka fuqarolar uchun ham maqbul keladigan shart-sharoitlarning yaratilishiga iqtisodiyotning real sektori ahvolini yaxshilashga qaratilmog'i lozim.

Soliq siyosati quyidagi tamoyillar asosida shakllantirilishi lozim:

- soliq tizimini barkarorligi;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tarmoq bo'ysinishi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar bir-xilda soliqqa tortilishi;
- bir-xil darajada daromadga ega bo'lgan turli tabaqadagi soliq to'lovchilarga soliq yukini teng taksimlanishi;
- bir-xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilarni teng sharoitda soliqqa tortish.

Bitiruv malakaviy ishimiz doirasida amalga oshirilgan izlanishlar natijasida bir necha xulosalar keltirildi. Ularning asosiylari va eng muhimlari quyidagilardan iboratdir:

1-xulosa. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq siyosatini yanada takomillashtirish asosida chuqur o'ylab, oqilona qabul qilingan qarorlar turadi. Ular bir tomondan, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini jiddiy kamaytirishga, ikkinchi tomondan, barcha darajadagi byudjet daromadlarini va byudjetdan tashqari fondlarning barqaror asosini saqlashni ta'minlashga qaratiladi.

2-xulosa. Soliq islohoti shunday o'tkazilishi kerakki, bunda bir tomondan soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik sohasidagi eng muhim muammolarni echish (tadbirkorlikni rivojlantirish uchun har-xil to'siqlarni bartaraf etish), ikkinchi tomondan davlat uchun soliq to'lovchilarni keng oshkoraligini ta'minlash, soliq ma'murchiligini yaxshilash va soliqqa tortishdan qochish holatlarini bartaraf etish lozim.

3-xulosa. Soliqqa tortilmay qolayotgan xufiyona iqtisodiyot va noqonuniy faoliyatni bartaraf qilishga yo'naltirilgan amaldagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan qat'iy tezkor nazorat o'rnatish va tegishli jazo choralarini kuchaytirish.

4-xulosa. Hozirda byudjet daromadlarini shakllantirishda resurs va mulk soliqlarining rolini oshirish siyosati olib borilmoqda. Bu siyosat hozirgi kunda eng ma'qul yo'l bo'lib, uni izchillik bilan davom ettirish zarur.

Soliq islohatlarini o'tkazish tadbirlari nafaqat soliq qonunchiligini takomillashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ular ichiga quyidagi tadbirlar kiritilishi lozim:

1-taklif. Bir-xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi, mulkchilik shaklidan qat'iy-nazar barcha soliq to'lovchilarni adolatlilik va tenglik tamoyili asosida soliqqa tortish.

2-taklif. Ish haqi fondidan olinadigan yagona ijtimoiy to'lov stavkasini pasaytirish lozim.

3-taklif. Aholini real daromadlarini oshirish maqsadida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan soliqqa tortilmaydigan minimumni chiqarib tashlashni joriy qilish.

4-taklif. Soliq qonunchiligini barqarorligini ta'minlash borasida kamida 3 yilga mo'ljallangan byudjet daromatlari va xarajatlari parametrlarini maqsadli yo'nalishini belgilashni nazarda tutuvchi soliq-byudjet siyosatini o'rtacha muddatli strategiyasini ishlab chiqish orqali soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tartibga solish lozim.

Bizning fikrimizcha, yuqorida berilgan takliflarni inobatga olinishi, moliya-soliq mexanizmlarini takomillashtirilishiga, moliyaviy mustahkam soliq to'lovchilar sonining ortishiga hamda davlat byudjetiga soliq tushumlarini barqaror tushishini ta'minlashga olib keladi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. -40 B.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2013 y. -692 B.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvshi sub'ektlar faoliyatini davlat nazorati to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 1999 yil 14 aprel.

1.6. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr.

1.7. "Oilaviy korxona to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2012 yil 12 aprel.

1.8. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimshalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini

takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik ushun javobgarlikni kushaytirish to'g'risida"gi Farmoni.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi PF 3305-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel "Xususiy tadbirkorlik, kishik va o'rta biznes rivojlanishini yanada rag'batlantirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimshalar kiritish to'g'risida»gi Farmoni.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 29 yanvarda "Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yisha pudrat ishlarini kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimsha shora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1051 sonli Qarori.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 19 iyundagi "Devorbop materiallar ishlab shiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimsha shora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1134-sonli Qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkishlarga yerishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi Qarori.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkishlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkishlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkishlari prognozi va

Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).

1.18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 avgustdagi "Pul mablag'larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari

1.19. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni shuqurlashtirish yo'lida. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1995 y. -B. 269.

1.20. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1997 y.-B. 326.

1.21. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1998. -B. 686.

1.22. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1999 y. — B. 412.

1.23. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barsha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.

1.24. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kush. -T.: «Ma'naviyat», 2008. -B. 176.

1.25. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

1.26. Karimov I.A. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar

strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi.

II. Asosiy va qo‘shimsha adabiyotlar.

Darslik va o‘quv adabiyotlari:

2.1. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.

2.2. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. -400 b.

2.3. Jo‘raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.

2.4. Jo‘raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.

2.5. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.

2.6. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.

2.7. Yutkina T.F. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. 8-e izd., pererab. i dop. –M.: INFRA-M, 2010. -576 s.

2.8. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 b.

2.9. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiy etilgan/ A. Yuldashev. - T.: " Fan texnologiya", 2007. - 128 s

2.10. Jo‘raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.

2.11. Jo‘raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O‘quv

qo'llanma. – T.: “O'qituvshi” nashriyoti, 2007. –232 b.

2.12. Gadoev E.F Kuzieva N.R Ashurova N.B Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. Toshkent, 2013.

2.13. Alimardanov M. Va boshqalar. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik.-T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2013 y. -296 bet.

2.14. Vahobov A.V, Jo'raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: “Sharq”, 2009 y. -448 bet.

2.15. Perov A. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 899 str.

2.16. Panskov V. Nalogi i nalogooblojenie: teoriya i praktika. Uchebnik. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 680 str.

2.17. Tarasova V. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik. – M.: “KNORUS”, 2012 g. – 488 str.

2.18. Tarasova V., Vladika M. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik. –M.: “Knorus”. 2009

2.19. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. – 204 b.

2.20. Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. -T.: 2006. —B. 32.

2.21. Makkonel K., Bryu S. Ekonomiks: Printsipi, problemi i politika. V 2 t.: Per. s angl. 11-go izd., T.1. – M.: Respublika, 2002. – s.120.

2.22. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.

2.23. To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2005. - B. 130

2.24. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.

2.25. Almardonov M.I., Qo'zieva N.R. Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: «Iqtisod-moliya», 2007. -B. 245.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

2.26.Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovshilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2007 yil, №8

2.27.Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to'lovshining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.

2.28.Malikov T.S. Mustaqillik yillarida soliq siyosati. //Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2001. №2, - B. 26.

2.29.Musagaliev A. Soliqlar vositasida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №8. - B. 41-42.

2.30.Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob'ektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - B. 51-53.

2.31.Olimjonov O. Adolatli soliq - mamlakat tayanshi. //Soliq to'lovshining jurnali. - Toshkent, 2006. - №6. - B. 38-40.

2.32.Usmanova M.S. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ayrim masalalari// Birja Ekspert.-Toshkent , 2009.-№12(24)-B.15.

2.33.Yunusov M. O'zbekistonda soliq siyosatining dolzarb muammolari //Bozor, pul va kredit. 2004. - №2.-13-bet.

2.34.O'rmonov J. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-printsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. -Toshkent, 2005. -B. 156-157.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

3.1.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№5.

3.2.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№10.

3.3.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№12.

3.4.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№9.

3.5.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012 yil. -T.:2013.-№6.

3.6.O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2010 - 2013.

IV.Internet saytlari.

4.1. <http://www.lex.uz>

4.2. <http://www.mf.uz>

4.3. <http://www.review.uz>

4.4. <http://www.imf.org>

4.5. <http://www.soliq.uz>

4.6. <http://www.tfi.uz>

4.7. <http://www.gov.uz>

4.8. <http://www.expert.ru>

4.9. <http://www.stat.uz>

4.10. <http://www.spainaccountants.com>

4.11. <http://www.japantax.org>